Юқоридаги схемада X гуруҳ U реагент яқинлашиб келган сари R қолдиқдан секин-аста сиқиб чиқарилади, яъни реакция бир босқичда амалга ошади. Реакциянинг бошланғич ҳолатида (А-нуқтада, қуйида расмда келтирилган) U⁻ реагент R-X молекуласидан анча узоқ масофада бўлади ва унга деярли ҳеч қандай таъсир кўрсатмайди. Реакция мобайнида U⁻ R-Xга яқинлаша бошлайди ва дисперсион кучлар ҳисобига уларнинг бир-бирига кўрсатадиган таъсири кучаяди ва

оқибатда иккала моддадан иборат бўлган $[Y \cdots R \cdots X]^{\ominus}$ таркибли оралиқ комплекс ҳосил бўлади. Бу комплексда U⁻ R-X молекуласидаги X гуруҳга қарама-қарши томондан углерод атомининг боғловчи орбиталига кирган ҳолда бўлади:



Бу жараён билан бир вақтда R ва X гуруҳлар орасидаги масофа ҳам ортади. Натижада комплекснинг потенциал энергияси ҳам ортади. R билан U ва R билан X гуруҳлар орасидаги масофалар тенг бўлганда (В нукта, қуйига расмга қаранг) бу энергиянинг қиймати энг катта бўлади. Бу нуктада беқарор мувозанат мавжуд бўлиб, у бир хил эҳтимоллик билан чапга ёки ўнга силжиши мумкин. Шунинг учун В нуктани, системанинг бу ҳолатини ўтиш ҳолати ёки фаол (актив) комплекси дейилади.



1-Расм. Синхрон реакция диаграммаси

Реакция давомида система охирги ҳолатга (С-нуқтага) ўтади. Бу ҳолатнинг энергияси дастлабки ҳолат энергияси (А-нуқта)дан ҳам кичик, аммо дастлабки ҳолатдан охирги ҳолатга келиш учун система “энергетик тоғ”ни (В-нуқтани) ошиб ўтиши керак.


Юқоридаги расмда келтирилган “реакция координати” тушунчаси дастлабки модданинг энг кам энергия сарф қилиб охирги моддага (маҳсулотга) айланадиган реакциянинг энг қисқа йўлини билдиради.

Асинхрон реакция.


Асинхрон реакция деб, оралиқ маҳсулот ҳосил бўлиши билан икки ёки ундан ортиқ босқичда борадиган реакцияга айтилади:

$RX + Y^{\ominus} \longrightarrow RY + X^{\ominus}$ реакция маълум бир аниқ оралиқ маҳсулот ҳосил бўлиши орқали ҳам бориши мумкин. Бу оралиқ маҳсулот Y^{\ominus} реагент билан реакцияга киришиб охирги маҳсулот - RY ни ҳосил қилади. Шундай қилиб юқоридаги схемада келтирилган реакция икки босқичда кетиши мумкин:

I босқич:




II босқич:



Алмашиниш реакциясининг бу кўриниши амалда иккита мустақил реакциядан иборат, уларнинг ҳар бири ўзларининг бошланғич ва охирги ҳолатларига эга.

Ўтиш ҳолати назариясига биноан реакция I босқичидаги

R-X нинг диссоциациясига маълум фаолланиш энергияси E'_A талаб қилинади ва бу реакция B_1 нукта билан ифодаланган ўтиш ҳолати орқали боради (пастдаги расмга қаранг). Бу ўтиш ҳолат худди синхрон реакция вақтидаги ўтиш ҳолат сингари вужудга келади. Эритувчи молекуласи R-X молекуласига X гуруҳнинг қарама-қарши томонидан ҳужум қилади ва диссоциацияни осонлаштиради. Бунда эритувчи охириги маҳсулот ҳосил қиладиган реакциянинг бевосита қатнашчиси бўлмайди. У энергияга бой ва электростатик таъсирга осон учровчи карбокатионни сольватлайди, холос. Эритувчи томонидан сольватлатган карбокатион қарорлигининг кичик ёки катта бўлиши ва у аниқ бирикма (оралиқ модда) вазифасини бажариб I босқичнинг охириги маҳсулоти C_1 бўлиши мумкин. C_1 оралиқ модданинг (карбокатионнинг) энергияси етарли даражада катта бўлгани учун у кейинги реакция учун дастлабки модда вазифасини бажариши мумкин (Масалан, реакциянинг II-босқичи учун). Бу реакция ҳам E''_A фаолланиш энергиясига эга бўлган B_2 оралиқ ҳолатдан ўтиши керак. Бу оралиқ ҳолат U^- реагентнинг яқинлашиб келиши ва шу билан бирга сольватловчи эритувчи молекуласининг сиқиб чиқарилишини характерлайди.




2-Расм. Асинхрон реакция диаграммаси

2. S_N reaksiyalar








3. S_E reaksiyalar

4. Тўйинган углерод атомидаги водороднинг электрофил алмашиниш реакциялари

Тўйинган углерод атомидаги водороднинг электрофил алмашиниш реакциясини қуйидаги умумий схема билан кўрсатиш мумкин:



Бундай реакциянинг тўйинган углеводородларда бориши мушкул, чунки протонни тортиб олиб карбанион ҳосил қилаоладиган реагент топилиши қийин. Агар алмашилиш содир бўладиган CH_3 -метил гуруҳи бирор электроноакцептор гуруҳ билан боғланган бўлса, юқоридаги реакция осонлик билан боради. Бундай электроноакцептор гуруҳ сифатида ароматик ва гетероароматик углеводородларнинг қолдиғи Ar- , ацил-гуруҳ (R-CO-), алкоксил гуруҳ (R-O-), нитро гуруҳ (NO_2-), циан гуруҳ ($-\text{CN}$) ва ҳоказолар бўлиши мумкин. Бу гуруҳлар таъсирида протоннинг чиқиб кетиши осонлашади ва ҳосил бўлган карбанион шу гуруҳ таъсирида барқарорлашади. Қуйидаги реакцияларнинг юқори унум билан кетиши фикримизнинг далилидир:




Юқорида келтирилган реакциялар фазалараро катализаторлар иштирокида олиб борилганда шундай яхши натижалар олинган.


Nukleofil o'rin almashinosh va eliminirlanish reaksiyalar

1. Reaksiyaning umumiy tavsiloti.
2. Chiqib ketuvchi gurux tavsifi .
3. Substratni reaksiyon qobiliyati.
4. Reaksiya tezligiga ta'sir etuvchi omillar.


To'yingan galogenhosilalari, spirtlar tiol va aminlarda sp^3 -gibridlangan uglerod atomi geteroatom bilan oddiy σ -bog' bilan bog'langandir. Geteroatomni elektrmanfiylik qiymati uglerodga nisbatan yuqori bo'lib σ -bog' elektronlari u tomonga siljigan. Bu birikmalar nukleofil o'rin olish S_N - reaksiyalarida substrat hisoblanadilar.



Nukleofil almashinish reaksiyalari – bimolekulyar va monomolekulyar mexanizm asosida sodir bo'ladi. Uglerod atomi o'ziga nisbatan elektrmanfiyligi yuqori bo'lgan geteroatomlar bilan bog'langan R-X tuzilishdagi birikmalar nukleofil almashinish reaksiyalariga kirishadilar. Bu birikmalarni reaksiyon qobiliyati C-X bog'ni qutbliligi (statik omil) va X o'rinbosarni ajralish qobiliyati (dinamik omil) bilan belgilanadi. C-X bog'ni qutbliligi geteroatom X ni elektrmanfiyligiga bog'liq bo'lib, azotli birikmalardan kislorodli va fluorli birikmalarga tomon ortib boradi.




X o'rinbosarni ajaralish qobiliyati C-X bog'ini energiyasi va chiqib ketuvchi guruhni tavsifiga bog'liqdir. Galogenni tartib raqami ortib borishi bilan uni hajmi ortib C-X bog'ni barqarorligi kamayadi va uzilishi qobiliyati ortadi.




Chiqib ketuvchi guruh barqaror, kiruvchi guruhga nisbatan energiyasi ozroq bo'lsa reaksiya tezlik bilan amalga oshadi. Galogen anionlar yaxshi chiqib ketuvchi guruh hisoblanadilar. OH^- , RO^- , NH_2^- , CH_3^- , H^- kabi kuchli asoslar yomon chiqib ketuvchi guruh hisoblanadilar. Substratni reaksiyon qobiliyati quyidagi qatorda ortib boradi.



Bimolekulyar nukleofil almashinish reaksiyasi $\text{S}_{\text{N}}2$ mexanizmi. Etilbromidni natriy gidroksidning suvli eritmasi bilan reaksiyasi asosida $\text{S}_{\text{N}}2$ reaksiya mexanizmini ko'rib chiqamiz.



Manfiy zaryadlangan gidroksil guruh qisman musbat zaryadlangan uglerod atomi galogenga nisbatan qarama-qarshi tomondan xujum qiladi. C-O bog'ni hosil bo'lishi va C-Br bog'ni uzilishi bir vaqtning o'zida sodir bo'lib oraliq kompleks hosil bo'ladi. Oraliq xolat oraliq birikma hisoblanmaydi va kimyoviy birikmalar uchun tegishli belgilarga (**doimiy** yadrolararo masofa va valent burchaklar) ega emas. Oraliq xolat sistemani boshlang'ich va oxirgi holatlariga nisbatan yuqori energiyaga egadir Oraliq holatda reaksiyon markazni uglerod atomi sp^2 -gibridlangan holatda bo'lib, uch ta'sirlashmaydigan bog'lar bir-biriga nisbatan bitta tekislikda, kiruvchi OH^- va chiqib ketuvchi Br^- shu tekislikka nisbatan perpendiklyar joylashgandir. Reaksiya tezligi substrat va nukleofil konsentratsiyasiga bog'liq bo'lganligidan bunday reaksiyalar $\text{S}_{\text{N}}2$ –mexanizm bo'yicha sodir bo'ladi.




boshlang'ich holat

oraliq holat


yakuniy holat

Oraliq holatda hujum qiluvchi va chiqib ketuvchi guruhlar bir-biridan maksimal uzoqlikda joylashib bu energetik jihatdan qulaydir. Substratdagi reaktсион markazda assimetrik uglerod atomi bo'lsa S_N2 reaksiya konfiguratsiya o'zgarishi bilan sodir bo'ladi. Masalan, L-2-brombutiratdan D-2- gidroksibutirat hosil bo'ladi.




Birlamchi alkilgalogenidlar, alkoksid va fenoksid, karbon kislotalarni tuzlari, tiolyat, ammiak va aminlar ishqoriy metallarni tuzlari S_N2 -mexanizm asosida ta'sirlashadilar. Galogenlar boshqa nukleofillarga nisbatan oson chiqib ketuvchi guruh hisoblanadilar.

Biroq spirt, amin, tiol va ularni hosilalari o'z tarkibida chiqib ketuvchi OH^- , NH_2^- , SH^- guruhlariga ega bo'lganliklari uchun to'g'ridan-to'g'ri nukleofil almashinish reaksiyalariga kirishlari qiyindir. Bunday holatlarda qiyin chiqib ketuvchi guruh osoniga almashtiriladi. Spirtlarda bu kislotali kataliz yordamida amalga oshiriladi.




Kislorod atomi bo'yicha protonlangan spirt substrat, suv molekulasini chiqib ketuvchi guruh hisoblanadi.


Monomolekulyar nukleofil almashinish reaksiyasi S_N1 mexanizmi. S_N1 – reaksiyalar sinxron bormasdan, ikki asosiy bosqichdan iborat. Buni uchlamchi butil xloridni gidrolizlanish reaksiyasi orqali ko'rib chiqamiz.



Birinchi bosqich jarayon tezligini belgilab, faqat substrat molekulasida ishtirokida amalga oshadi. Substrat karbkation va chiqib ketuvchi guruhga nisbatan sekin dissotsilanadi.



Reaksiya tezligi nukleofil konsentratsiyasiga bog'liq emas. Ikkinchi bosqichda nukleofil karbkationni nisbatan tez hujum qilib reaksiyani oxirgi mahsuloti hosil bo'ladi.



Reaksiya tezligi faqat substrat konsentratsiyasiga bog'liq bo'lganligi uchun bunday reaksiyalar $\text{S}_{\text{N}}1$ -reaksiyalar deyiladi. Optik faol birikmalarda $\text{S}_{\text{N}}1$ -reaksiyalarda ratsematlar hosil bo'ladi, chunki karbkation yassi tuzilishga ega bo'lib, nukleofil tomonidan qarama-qarshi tomondan xujum qilinishi mumkin.

Nukleofil almashinish reaksiyalarini $\text{S}_{\text{N}}1$ - mexanizm bo'yicha sodir bo'lishi quyidagi omillarga bog'liq:

- 1) reaksiyon markazdagi fazoviy qiyinchiliklar
- 2) erituvchini solvatlovchi qobiliyati
- 3) karbkationni elektron omillar hisobiga barqarorlashuvi.

Karbkationni barqarorligi quyidagi qatorda ortib boradi:



$\text{S}_{\text{N}}1$ reaksiyalarini xarakatlantiruvchi kuchi hosil bo'lgan ionlarni erituvchi tomonidan solvatlanishi bo'lib, bunda ion va erituvchi o'rtasida labil kimyoviy bog'lar hosil bo'ladi. Bu karbokationlarni barqarorlashuviga olib keladi. Chiqib ketuvchi guruh ham erituvchi bilan vodorod bog'lari hosil qiladi.



Karbkationlar bo'linmagan elektron juftga ega erituvchilar bilan yaxshi solvatlanadi: ammiak, suv, aminlar, spirtlar.

Turdagi to'yingan birikmalarni S_N1 va S_N2 - mexanizm bo'yicha nukleofil almashinish reaksiyalariga kirishuvi radikal tuzilishiga sezilarli ravishda bog'liq bo'ladi. Odatda hajmdor o'ribosarlar nukleofilni reaksiyon markazga yaqinlashuvini qiyinlashtiradi. Metil radikalidan birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi radikali substratlarga tomon S_N2 reaksiyani tezligi kamayadi. Buning natijasida uchlamchi radikalga substrat S_N1 ; birlamchili substrat S_N2 ; ikkilamchili substrat esa nukleofil tabiati, chiqib ketuvchi gurux va erituvchi tabiatiga S_N1 va S_N2 mexanizm bo'yicha ta'sirlashadi. Kuchli nukleofil ta'sirida reaksiya S_N2 , yaxshi solvatovchi qobiliyatli erituvchi ishtirokida S_N1 mexanizm bo'yicha sodir bo'ladi.

O'rin olish reaksiyalarining o'tishiga ta'sir etuvchi omillar. O'rin olish elimirlanish reaksiyalarining raqobati va mexanizmi.

1. Fazoviy ta'sirlar.
2. Erituvchi ta'siri.

3. Boshqa ta'sirlar

Fazoviy to'siqlik natijasida tarmoqlangan o'rinbosarlar S_N2 reaksiyaga kirishishi qiyinlashadi. Aksincha S_N1 reaksiyaga oson kirishadi.

S_N1 reaksiyaning birinchi bosqichida hosil bo'ladigan karbokation barqarorligi o'rinbosarlar hisobidan ortadi va bu omil ham S_N1 reaksiyani borishin yengillashtiradi.

Erituvchini reaksiyaga kiruvchi solvatlangan ionlardan ko'ra o'tish xolati solvatatsiyasi yuqori bo'lganda reaksiya tezligi oshadi. Buning uchun erituvchining solvatlash xolati yuqori bo'lishi kerak. Chiqib ketuvchi solvatatsiyasiz nukleofil reaksiya utmaydi.

Solvatlash qobilyati erituvchining qobilyatiga bog'liq. Erituvchilarni 3 ta sinfga bo'lish mumkin.


1. Nukleofil va elektrofil xossali
2. Nukleofil xossali
3. Elektrofil xossali erituvchilar.

1-guruxga suv, spirtlar, karbon kislotalar, aminlar, amiak

2-guruxga efirlar, atseton, glioksal, dioksan, nitrometan, dimetil formalin, dimetil sulfoksid, atsetonitril,

3-guruxga anionlarni solvatlovchi ionlar barcha luis kislotalar surma(V) xlorid

S_N1 reaksiyani osonlashtiradi faqat chegaraviy xollarda S_N1 S_N2 deyiladi.



$$S_{N2}, E2: \frac{-d[RX]}{dt} = K_2 [Y] [RX]$$

E2 quyidagilar asoslar tomonidan tezlashtiriladi: atsetat ioni $C_6H_5O^-$, OH^- , NH_2^- , CO_3^{2-} va boshqalar.

$H \rightarrow D^2$ yoki T^3 ga aylantrilganda reaksiya tezligi pasayadi.

3-мавзу: Органик бирикмаларни индивидуал ҳолатда ажратиб олиш. Физик-кимёвий усуллар ёрдамида бирикмаларнинг тузилишини аниқлаш. (2 соат).

Режа:

- 1.Тоза модда олинишида Физик-кимёвий усулларининг аҳамияти.
- 2.Модда тузилишини аниқлашда комплекс ёндашув.

Физик-кимёвий усуллар ёрдамида моддалар табиий хомашё ёки синтетик аралашмадан ажратиб олинади ва тозаланади. Бунда Экстракция ва хроматография усуллари муҳим аҳамият касб этади. Тоза модда олингандан сўнг унинг кимёвий тузилиши кимёвий ва ускунавий усулларда комплек тарзда ўрганилади.

Масс-спектрометрия.

Режа:

1. Масс-спектрометрияни бошқа физметодлар қаторидаги ўрни (электромагнит тўлқинлари спектри тўғрисида).
2. Масс-спектрометрия усулини тавсифи (электрон зарба→молекуляр ион→парчаланиш).
3. Тарих: Дж. Томсон , 1910 йилда биринчи тажриба ўтказди; 1918 йилда А.Демпстер биринчи масс-спектрометр ясаган; 1940 йилда А.Нир биринчи марта ускуна ишлаб чиқаришни йўлга солди; 1959 йилда биринчи хроматомасс-спектрометр: масс-спектрометрни ГПЕХ га уланган (учувчан моддалар учун); 1983 йилда масс-спектрометрни суюқлик хроматограф билан уланди (учмайдиган моддалар учун)- мураккаб аралашмаларни анализ қилиш имконияти;
4. Масс-спектрометрия имкониятлари;
- 4.1. Моддани молекуляр массасини аниқлаш. Электронлар тўпламини энергияси 10 Эв. $1\text{эв}=23\text{ ккал/моль}$.

Молекуляр ионга шартлар:

1. Спектрда энг катта массага эга бўлади, у қолганлари парчаланиш натижаси.
2. M^+ да электронлар сони тоқ бўлиши керак. У учун R -тўйинмаганлик даражаси- бутун сон бўлиши керак; $R=x-1/2y+1/2z+1$. Бу формуладах,у, z –молекуляр формуладаги индекслар: $C_xH_yN_zO_n$ C ва Si учун IV га, N ва P-I га, O ва S-II га, H ва NaI- I га тенг бўлиши керак.

3. M^+ дан кейинги ионлар M^+ - (5 дан 13 гача) бۆлмәслиги керәк: M^+-15 , M^+-29 бۆлиши мумкин.

4.2. Молекуляр формулани аниқлаш.

1. Замонавий юқори аниқлик билан ишловчи ускуналар молекуляр массани вергулдан кейин 4-5 чи рақамгача аниқлайди. Улар аниқ массани бера олади. Масалан, N_2 ва C_2H_4 нинг масса сонни бир хил-28 а.м.б. Лекин аниғи фарқ қилади: $N_2=28,0061$; C_2H_4 учун эса 28,0313.

2. Оддий аниқлиги бир бутун сонли ускуналарда табиий изотоплар ҳисобига формулани аниқлаш мумкин

	Масса	изотоп	элемент тури
H	1(100%)	2(0,015%)	A
C	12(100%)	13(1,1%)	A+1
N	14(100%)	15(0,37%)	A+1
O	16(100%)	17(0,04%), 18(0,2)	A+2
S	32(100%)	33(0,8), 34(4,4%)	A+2
Cl	35(100%)	37(32,5%)	A+2

Демак, ҳар бир атом M^+ ни кўрсатилган фоизга оширади (интенсивликни).

Масалан: бензтиазол

Азот қоидасидан фойдаланилади.

4.3. Азот қоидаси:

Азот атомлари молекула таркибида мавжуд бўлиб, уларни сони тоқ бўлганда, M^+ тоқ бўлади. Жуфт бўлса, жуфт бўлади. Бу эмпирик қоида. Азот бўлмаган ҳолда масса жуфт бўлади. Мисоллар:

Молекула	M^+	
NH_3	17	(1 та азот, M^+ тоқ)
H_2N-NH_2	32	(2 та N, M^+ жуфт)
$(CH_3)_2NH$	45	1 та тоқ
CH_3-NH_2	31	1 та тоқ
$(CH_3)_2N$	59	1 та тоқ
	79	1 та тоқ
	78	←йўқ, жуфт.

4.4 Молекулани тўйинмаганлик даражасини аниқлаш. 4.1.2. бандида келтирилган формуладан фойдаланилади:

$R=X-1/2y+1/2z +1$ чегаралари 4.1.2. да (ишлатилиш) келтирилган.

Спиро[4.5] декан- $C_{16}H_{18}$.

$R=10-9+0+1=1+1=2$ та . Демак, молекуляр формуладан структура (халқа) формуласига ўтишда бу қоидадан фойдаланилади.

2-азаспиро [5.5] ундекан-7-ол $C_{10}H_{19}NO$

$R=10-9,5+0,5+1=0,5+0,5+1=2/$

Ҳар бир халқа 1 та қўшбоғга тенг.

Бензтиазол C_7H_5NS ; $84+5+14+32=135$
 $R=7-2,5+0,5+1=4,5+0,5+1=6$
 4 та қўшбоғ + 2 та халқа = 6.

Нитрарин $C_{26}H_{25}N_3$; $240+25+42=307$
 $R=20-12,5+1,5+1=7,5+1,5+1=10$
 Тўйинмаганлик даражаси
 10:4 та қўшбоғ+6 та халқа.

4.5. Фрагментланишнинг (парчаланиш) асосий қоидалари:

70 эВ энергияга эга бўлган электрон зарбаси юборилганда молекуляр ион (M^+) кичик парчаларга бўлиниши мумкин. M^+ нинг фрагментланиши 2 та асосий йўл билан ўтади:


- 1). Диссоциация;
- 2). Қайта гуруҳланиш;

1). диссоциация: $ABCD^+$.

$A^+ + BCD^*$ $A^* + BCD^+$ $AB^+ + CD^*$ $AB^* + CD^+$ ва ҳоказо

Углеводород табиатидаги ва кислород тутган бир оқим ионлар ҳосил қилади.

2). Қайта гуруҳланиш натижасида янги кичикроқ массали ион радикал ва нейтрал молекула чиқади




1). Яхши ўрганилган.

Асосий қоидалар:

1. Энергияси паст боғлар осонроқ узилади. Масалан, C-C боғнинг энергияси C-H боғнинг энергиясидан пастроқ ва осон узилади. Алканлар C-C бўйича парчланади.
2. Парча ионларнинг спектрдаги интенсивлиги улар барқарорлиги билан боғлиқ бўлади.
3. Икки хил имконият бўлганда, каттароқ ўрин олувчи осонроқ узилади.


4. Тўйинмаган ва ароматик халқаларда асосан β -узилиш кузатилади:



Натижада барқарор аллил ион ҳосил бўлади.



5. C-гетероатом (C-X; X=Cl, O, N) C-C га нисбатан осон узилади.



Мусбат заряд одатда гетероатомда сақланади.

6. Нисбатан заиф O-H ва N-H боғлар узилиш натижасида (M-1)⁺ ионлар ҳосил бўлади.

7. Гетероатомли моддаларда C-C боғлардан α-ҳолатдаги осонроқ узилади.


Спирт:




Амин




Альдегид, кетон:





8. Қайта гуруҳланишга масалан, сув чиқиб кетиши киради.



Ёки галогенводородни ажралиши:



Мисоллар: 1. н-гексан C₆H₁₄ M⁺=86.



2. н-гексадекан: 1 билан бир хил фақат M⁺ 225 C₁₆H₃₄

3. метилсалицилат

9. Мутлақо учувчан бўлмаган углеводларни триметилсилил ҳосилалари ўрганилади. Аминокислоталар ҳам учмайди. Ўрганиш учун учувчан ҳосила олиш керак

Электромагнит нурланишнинг табиати.

Электромагнит нурлари икки хил табиатга эга:

1. Айрим шароитда электромагнит нурлари тўлқин табиатга эга бўлиб, узлуксиз хоссага эга физик майдон сифатида ўзини кўрсатади.

2. Бошқа шароитда электромагнит нурлари “корпускуляр” хоссага эга бўлиб, дискрет заррачалар, яъни фотонлар сифатида ўзини билдиради.

Агар электромагнит нурлари йўналишида модда ёки қандайдир материал учраса бир қанча физикадан сизларга маълум бўлган ҳодисалар рўй беради: интерференция, дифракция, нурларни қайтарилиши, йўналишни ўзгариши,

нурларнинг ёйилиши. Бу ҳодисаларни электромагнит нурларини тўлқин табиатига асосланиб тушунтириш мумкин.

Айрим бошқа ҳодисалар эса: тортиш ҳисобидаги нурларнинг йўналишини ўзгариши, атом ва молекулалар томонидан электромагнит нурларини ютиш ёки ажратиб чиқариш — электромагнит нурларининг корпускуляр табиати асосида яхши тушунтирилади.

Электромагнит нурларининг тўлқин табиати тўғрисида.

х-тўлқин йўналиши
λ-тўлқин узунлиги
E-тўлқиннинг электрик қисми
н-электромагнит қисми
а-амплитуда (тебраниш кенглиги)
ху-поляризация майдони:
электрик майдон тебранган
майдон

Электромагнит нурланиш спектри.

Олдин ўлчов бирликларини аниқлаб олайлик: λ-тўлқин узунлиги ўлчанади. Бирлиги: м, см, мкм(микрометр, илгари микрон дейиларди, 10^{-6} м), нм(нанометр, илгари миллимикрон дейиларди, 10^{-9} м), Å(ангстрем, 10^{-10} м).

ν (ню) бирлик Гц (герц), ν —тўлқин сони, ўлчов бирлиги см^{-1} : бир см даги тўлқинлар сони

Электромагнит нурларининг барча частоталари (ёки тўлқин узунликлари) тўплами электромагнит спектрлари дейилади.

Спектр қайси соҳаларга бўлинишини батафсил кўриб чиқамиз:

1. γ-нурлари λ 10^{-4} - 10^{-12} м оралиғида $\epsilon = 10^7$ эв. Бу соҳани “γ-резонанс спектроскопияси” ўрганади. Бу соҳадаги нурлар ютилиш ёки ажраб чиқиш жараёнида ядроларнинг энергетик ҳолати ўзгаради.
2. Рентген нурлари (ёки х-нурлар) λ 10^{-12} - 10^{-8} м, $\epsilon = 10^5$ эв. Бу соҳада ишлайдиган ҳам махсус приборлар мавжуд. Бу соҳа нурлари билан ўзаро таъсирланиш натижасида атомларнинг ички қатлам электронларининг энергетик ҳолати ўзгаради.
3. Вакуум ультрабинафша (УБ) соҳаси:
 λ 10^{-8} - 10^{-7} м (10-100 нм), $\epsilon = 10^1$ эв.
4. Узоқ ультрабинафша соҳаси: 10^{-7} - $2 \cdot 10^{-7}$ м (100-200 нм), $\epsilon = 10^{+1}$ эв.
5. Яқин ультрабинафша соҳаси- $2 \cdot 10^{-7}$ - $4 \cdot 10^{-7}$ м (200-400 нм), $\epsilon = 10^{+1}$ эв. УБ спектроскопия ўрганади.
6. Кўзга кўринадиган соҳа: $4 \cdot 10^{-7}$ - $1 \cdot 10^{-6}$ м (400-1000 нм), $\epsilon = 10^1$ эв.

3-6 соҳалар бир-бирига жуда яқин (10^{-8} - 10^{-6} гача ёки 10 нм дан 1000 нмгача) бўлиб, энергияси ҳам бир хил: 10 эл-вольт. Бу соҳа нурлари билан ўзаро таъсирланиш натижасида атомларнинг ташқи қатлам электронларининг энергетик ҳолати ўзгаради. Электрон спектроскопия ўрганади.

7. Яқин ИҚ-соҳа: $1 \cdot 10^{-6}$ - $2,5 \cdot 10^{-6}$ м (1 мкм- 2,5 мкм ёки 1000 нм-2500 нм гача) $\epsilon = 10^{-1}$ эв.

8. Ўрта ИҚ-соҳа: $2,5 \cdot 10^{-6}$ м- $2 \cdot 10^{-5}$ м (2,5 мкм дан 20 мкм гача ёки 4000 см^{-1} дан 500 см^{-1} гача), $\epsilon=10^{-1}$ эв. Инфрақизил спектроскопия ўрганади.

9. Узоқ ИҚ-соҳа: $2 \cdot 10^{-5}$ м- $1 \cdot 10^{-3}$ м (20-1000 мкм), $\epsilon=10^{-1}$ эв.

7-9 соҳалар ($1 \cdot 10^{-6}$ - $1 \cdot 10^{-3}$ м) ҳаммаси бир энергияга (10^{-1} эв) эга. Электромагнит нурлари модда билан ўзаро таъсирланиш натижасида молекуладаги атомлар тебраниш ҳисобига вужудга келган энергия приборларда ёзилади ва тебраниш спектроскопия дейилади.

10. Микротўлқинли нурланиш: 10^{-3} м- 10^{-2} м (1 мм дан-1 см гача). Бу соҳада “молекуляр айланишлар” вужудга келади, яъни атомларнинг кристаллик панжарадаги тебранишлар электромагнит нурланишнинг шу соҳасида ўрганилади. Энергияси паст микротўлқинли спектроскопия ёки ЭПР (Электрон парамагнит резонанс спектроскопияси) шу соҳада қўлланилади.

11. Радиотўлқинлар: 1 см дан бир қанча км гача . Бу соҳада ядро-спин ўтишлар ўрганилади. Соҳани ЯМР (ядро магнит резонанс) спектроскопия усулида ўрганадилар.

Юқорида кўриб чиқилган электромагнит нурланиш соҳалари (спектри) қисқа спектр турида ёзилиши мумкин:

γ нурлар	x нурлар	Вакуум УБ	Узоқ УБ	Яқин УБ	Кўзга кўр. соҳа	ИҚ Спек-я соҳаси	Микро Тўлқин Сп-я соҳаси	ЯМР соҳаси		
10^{-14} - 10^{-12} м	10^{-12} - 10^{-8} м	10-8- 10-7 м	$1 \cdot 10^7$ - $2 \cdot 10^7$	2.10-7- 4.10-7	4.10-7- 1.10-6					

УБ ни қўлланилиши.

1. Хромофор гуруҳларини тузилишини ўрганиш.
2. Модданинг тозалик даражасини аниқлаш (аддитивлик ҳисобида қўшимча моддалар спектрда чиқиб қолади).
3. Функционал гуруҳлар тўғрисида умумий маълумот олиш. Масалан, агар спектрда 200 нм дан юқорида ютилиш кузатилмаса, бу моддада конъюгацияланган хромофорлар ($\text{C}=\text{C}-\text{C}=\text{C}$), альдегид ($\text{R}-\text{CHO}$), кетон ($\text{R}-\text{C}-\text{R}$), бензол ($\text{Ph}-\text{R}$), бром, йод гуруҳлар йўқ дейишимиз мумкин. Лекин, бу моддада бўлиши мумкин. F, Cl, алоҳида $\text{C}=\text{C}$, карбоксил $\text{R}-\text{COOH}$, циан $\text{C}\equiv\text{N}$, гидроксил $\text{R}-\text{OH}$, меркаптан $\text{R}-\text{SH}$ ва аминогруппа ($-\text{NH}_2$).

4. Конъюгация табиати ва даражаси.

$\text{CH}_3(\text{CH}=\text{CH})_8\text{CH}_3$ $\lambda_{\text{max}}=420$ нм-ҳамма вақт.

$\text{CH}_3(\text{CH}=\text{CH})_9\text{CH}_3$ $\lambda_{\text{max}}=440$ нм

} кўшбоғлар транс конфигурацияси

$\text{CH}_3(\text{CH}=\text{CH})_{10}\text{CH}_3$ $\lambda_{\text{max}}=472$ нм

Учала модда кўзга кўринар соҳада ютишади, шунинг учун рангли.

Тозалигини аниқлашга мисол.

Этил спиртни тозалигини аниқлаш: абсолютлаш бензол билан бўлади, кейин у йўқотилади. УБ контроли: $\lambda_{\max}=260$ нм ($\epsilon=230$ эв). Бу соҳада спирт ютмайди 100 л спиртда 1 г бензоли бор эритмани оптик зичлигини аниқлаш. $D=\epsilon \ell c$ $D=230 \cdot 1 \cdot c$ $\ell=1$ см. $c=1,28 \cdot 10^{-4}$ моль/л; $D=0,295$.

УБ спектроскопияни амалда қўлланилиши.

Нитраринни ва унинг дегидрогенлаш реакцияларини ҳосилаларини тузилишини исботлаш ҳақида гапириб берилди.

ИҚ-спектроскопиядан фойдаланиш:

Демак, атомлар тўпламини ёки функционал гуруҳни аниқлаш сифат анализ асосида ётади.

Асосий функционал гуруҳлар:

>N-H → 3300-3500 cm^{-1}

}

-O-H 3600-3000 cm^{-1}

>C-H тўйинган 2800-3000 cm^{-1}

O

R-C 1600-1760 cm^{-1}

R-C-N< 1610-1660 cm^{-1}

Кетонлар 1650-1710 cm^{-1}

Конъюгацияланган альдегид 1680 cm^{-1} (>C=C-CH=O)

Мураккаб эфирлар 1740 cm^{-1} C=C, C=N қўшбоғлар 1450-1630 cm^{-1}

Орто алмашинган олинган бензол 760 cm^{-1}

-C-O -оддий эфирлар 950-1200 cm^{-1}

COO- 1600, 1400 cm^{-1}

COOH 1710-1760 cm^{-1}

-NH₃ 3070,

-NH₂ 3300-3500 cm^{-1}

ИҚ-спектроскопия ёрдамида кўпчилик аминокислоталар “ички туз” шаклида бўлиши аниқланган.



Ҳақиқатдан, глицинда нейтрал муҳитда икки сигнал (1600-1400 cm^{-1}) кузатилади; улар -COO- гуруҳга характеристик полосалар ҳисобланади.

Агар ДСІ кислота қўшиладиган бўлса, тузилиш қисман амалга ошади ва ИҚ спектрда 1600, 1400 ўрнига 1710 см⁻¹ полоса пайдо бўлади. Лекин -⁺NH₃ ўзгармайди. Унинг полосаси 3070 см⁻¹ да кузатилади. Асос (ишқор) қўшилганда карбоксил гуруҳ қайта анионга ўтиб, яна 1710 ўрнига иккита (1600, 1400) полоса пайдо бўлади. 3070 ни ўрнига эса NH₂ га хос 3300-3500 см⁻¹.


Демак, ИҚ-спектр асосида кўп аминокислоталар ивиттер-ион шаклида (нейтрал муҳитда) бўлиши исботланди. Ҳозир кўп маълумот берувчи адабиётларда 20 мингдан ортиқ моддаларни ИҚ-спектрлари келтирилган.

Бундан ташқари, ноорганик моддаларнинг анализиди ҳам ИҚ кенг қўлланилади:

CO₃²⁻ 1450 см⁻¹; NO₃⁻ 1380 см⁻¹; SO₄²⁻ 1130 см⁻¹; NH₄⁺ 3300 см⁻¹;

Махсус методикалар.

Водород боғи: бўлиши мумкин ички молекуляр ва молекулалараро :



Иккинчи тури суюлтирилганда йўқотилади: н-боғли 3000-3400 бўлса, н-боғсизи 3600 см⁻¹. Биринчиси кенг, иккинчиси тор соҳада.

Ички молекуляр н-боғ йўқ, лекин молекулалараро Н-боғ мавжуд.

Ички молекуляр н-боғ

Ядро магнит резонанси (ЯМР).

I. Кимёвий силжиш.

1. Эффе́ктив магнит майдон.

2. Нисбий кимёвий силжиш.

3. Кимёвий силжишга таъсир қиладиган эффе́ктлар:

а). Электроманфийлик (индукцион эффе́кт);

б). Анизотропия (фазовий таъсирлар); C=O, C=C, C≡C, C≡N;

в). Ўрин олувчиларни инкрементлари.

III. Кимёвий силжиш ва стереохимия.

IV. Спин-спин ўзаро таъсирланиш.

1. Спин-спин таъсирланиш константаси (ССТК);

2. СС ўзаро таъсирланиш натижасидаги сигналларнинг ажралиши.

3. Спин-декаплинг тажрибалари.

V. ЯМР ни амалда қўллаш.

VI. 1Н ташқари бошқа ядролардаги ЯМР.

Спин квант сон ядро таркибидаги протон ва нейтрон сонига боғлиқ. Менделеев жадвалидан атомларни кузатиб борилса, протон ва нейтронлар сони ҳар доим ўзгариб туради. Шунинг учун ядро спини ҳам ўзгариб туради. Бир модданинг изотопларида ҳам спин квант сони ҳар хил бўлиши турган гап. Масалан, ^1H учун $J=1/2$ ^2H учун $J=1$

Олдиндан изотопнинг ядросини спинини айтиш иложиси йўқ. Лекин спин сонини чегаралайдиган қоидалар бор:

1. Протон ва нейтронлар сони (алоҳида) жуфт бўлганда $J=0$
2. $J=1, 2, 3, \dots$ Бутун сонларга тенг, агар ҳам протон ҳам нейтронлар сони тоқ бўлса.
3. $J=1/2, 3/2, 5/2$ агар протон ва нейтронларнинг бири тоқ, бири эса жуфт бўлса.

Ташқари магнит майдони таъсирида (H_0 -майдон кучи). Спин квант сони J бўлганда ядро $1J+1$ энергетик поғоналарни эгаллайди.

Икки қўшни поғоналар энергиясини фарқи:

γ -магнитогирик нисбат (маълум изотоп учун const.)

H_0 -ташқари майдонни кучи.

ΔE - ядро атропоф табиатига боғлиқ бўлиб, модда тузилиши тўғрисида ахборот беради.

4-мавзу: Биополимерлар соҳасининг муҳим вазифалари: Оксилни бирламчи тузилишини аниқлаш жараёни. Матрица РНК орқали оксил синтези учун ДНКдан рибосомага генетик кодни узатиш. (2 соат)

Р Е Ж А:

1. Оксил бирламчи тузилишини аниқлаш.
2. Аминокислота таркибини аниқлаш.
3. Кислотали гидролиз.
4. Аминокислоталарни миқдорий анализи.
5. Н—охирги ва С—охирги аминокислоталар таркибини аниқлаш.
6. Аминокислоталар кетма — кетлигини аниқлаш.
7. Полипептид занжирини фрагментлаш.
8. Кетма-кетликни аниқлашнинг махсус кимёвий усуллари.
9. Ускунавий усуллар.

Оксил ва аминокислоталарнинг аминокислота кетма-кетлигини аниқлаш учун кимёвий, ферментли ва физико-кимёвий усуллар биргаликда қўлланади.

Оксил ва пептидларнинг аминокислота таркибини аниқлаш учун текширилаётган манба 5.7н хлорид кислотада гидролиз қилинади ва гидролизатдаги барча аминокислоталарни миқдори аниқланади. Намуна гидролизи вакуумда кавшарланган ампулада 110°C 24 соат давомида амалга оширилади. Бунда триптофан тўлиқ; серин, треонин, цистин ва цистеин қисман парчаланадилар, глутамин ва аспарагин эса тегишли аспарагин ва глутамин кислоталаргача тўлиқ парчланади. Шу билан бирга тармоқланган ён занжирли аминокислоталардан (Val, Ile, Leu) ҳосил бўлган пептид боғлари фазовий тўсқинликлар натижасида қисман гидролизланади. Айниқса Val-Val, Ile-Ile, Val-Ile ва Ile-Val боғлари барқарордир. Оксилни аминокислота таркибини жуда тўғри аниқлаш учун 24, 48, 72 ва 96 соат давомида параллел равишда гидролиз амалга оширилади ва барча


намуналар текширилади. Оқсилдаги триптофан миқдорини аниқлаш учун гидролизда хлорид кислота о'рнига 4н метансулфо кислота олинади.

Триптофани спектрофотометрик ёки рангли реакциялар ёрдамида аниқлаш мумкин. Одатда оқсилни аминокислота таркибини аниқлашда глутамин ва глутамин кислота, аспарагин ва аспарагин кислотани умумий миқдори аниқланиб, уларни дифференциацияси бирламчи тузилишни аниқлаш жараёнида амалга оширилади. Оқсил гидролизатидаги аминокислоталарни миқдорий аниқлаш аминокислота анализатори қурилмаси орқали амалга оширилади. Анализатор 1958 йилда S.Moore ва W.Stein томонидан яратилган. Аминокислоталар аралашмаси сулфирланган полистирол смоласи билан то'лдирилган колонкада ионалмашиниш хроматографияси орқали амалга оширилади. Колонка буфер эритмалари билан аста-секин уларни рН ва концентрациясини оширилиб ювилади. Нар бир аминокислотани ушланиш вақти аниқланган бо'либ, уни ионланиш даражасига боғ'лиқдир. Колонкадан чиқаётган элюат нингидрин эритмаси билан аралаштирилади ва махсус бо'лмачада 100⁰С гача қиздирилади. Аминокислота нингидрин билан таъсирлашиб, аммиак, карбонат ангидрид ва алдегид ҳосил қилади. Носил бо'лган аммиак нингидринни бошқа молекуласи билан таъсирлашиб, 570нм да ютилиш максимумига эга бинафша рангли ҳосила ҳосил қилади. Пролин нингидрин билан таъсирлашиб, 440нм да максимумга эга сариқ рангли маҳсулот ҳосил қилади. Реакция натижасида ҳосил бо'лаётган маҳсулотлар интенсивлиги текширилаётган гидролизатдаги аминокислоталар миқдорига пропорционал бо'либ, спектрофотометр ёрдамида аниқланади. Замонавий аминокислота анализаторларида 1 наномол аминокислота ишончли аниқланади, текшириш вақти 1.5-2 соатни ташкил этиб, барча жараён автоматлаштирилган. Баъзи анализаторларда сезгирликни ошириш учун аминокислоталар билан таъсирлашаётганда флуоресцирловчи бирикмалар ҳосил қилувчи флуорескамин ёки о-фтал ангидрид қолланади. Бундай ҳолатларда махсус детектор қоллаб 10-50 пикамол аминокислотани аниқлаш мумкин.

Н-охирги аминокислота таркибини аниқлаш. Оқсилдаги полипептид занжирда бир томонда эркин α-аминогуруҳга эга (амино ёки N-охирги), иккинчи томондан эркин α-карбоксил (карбоксил ёки C-охирги) гуруҳга эга аминокислота қолдиг'и мавжуд. Охирги аминокислота қолдиқларини аниқлаш оқсил аминокислота кетма-кетлигини аниқлаш жараёнида муҳим аҳамиятга эгадир. Изланишнинг биринчи босқичида бу оқсил молекуласини ташкил этувчи полипептид занжирлари сонини ва текширилаётган намунани гомоген даражасини аниқлашга имкон беради. Кейинги босқичларда N-охирги аминокислоталарни текшириш орқали пептид фрагментларини бўлиниш даражасини назорат қилишга имкон беради.

N-охирги аминокислота қолдиқларини аниқлашни биринчилардин бўлиб, 1945 йилда F.Sanger томонидан тавсия этилган эди. Оқсил ёки пептидни 2,4-динитрофторбензол билан таъсири натижасида сариқ рангга бо'ялган *динитрофенил* (ДНФ) ҳосила ҳосил бўлади. Кислотали гидролиз (5.7н HCl) натижасида ҳосилани полипептид занжир билан боғлаб турган пептид боғлари узилиб, N-охирги аминокислотани ДНФ-ҳосиласи ҳосил бўлади. ДНФ-аминокислота эфир билан экстракция қилинади ва стандартлар иштирокисда юпка қатламли хроматография

усули билан қиёсланиб, о'хшашлиги аниқланади. Жараён умумий ҳолатда қуйидагича тасвирланади:




ДНС-аминокислоталарни аниқлаш учун энг истиқболли усуллардан бири юқорисамарали қайтарфазали суюқлик хроматографияси ҳисобланади. Флуоресцент детектордан фойдаланиш натижасида дансил усулини сезгирлиги 10 пикамолгача оширилади. Шу билан бир қаторда N-охирги аминокислоталарни Эдман ва аминопептидазалар билан ферментли гидролиз усуллари билан аниқлаш мумкин.

C-oxirgi аминокислота таркибини аниқлаш. *C-oxirgi* аминокислота қолдиқларини аниқлаш учун *гидразинолиз* ва *оксазалаон* усуллари кенг қўлланилади. Гидразинолиз усули S.Akabori томонидан тавсия этилган бо'либ, пептид ёки оқсил сувсиз гидразин билан 100-120°C да қиздирилганда пептид бог'лари гидролизланиб аминокислота гидразидларини ҳосил қилади. *C-oxirgi* аминокислота эркин аминокислота ҳолида қолиб, реакцион аралашмадан ажратилиб аниқланиши мумкин.




Усулни бир неча камчиликлари бор. Гиразинолиз натижасида глутамин, аспарагин, истеин ва цистин парчаланадилар; аргинин гуанидин гуруҳини йо'қотиб орнитин ҳосил қилади. Серин, треонин ва глицин гидразидлари о'згарувчан бо'либ осонгина эркин аминокислоталарга айланадилар. Оксазалаон усули В.Матсуо томонидан биринчи марта тавсия этилган. Оксазалаон усули одатда *третий нишонли усули* деб аталиб, *C-oxirgi* аминокислотани сирка ангидриди таъсирида ҳалқаланиб оксазалаон ҳосил қилишига асослангандир. Ишқорий муҳитда оксазалаон ҳалқадаги 4 ҳолатдаги водород атомларини ҳаракатчанлиги кескин равишда ортади. Третийланган оқсил ёки пептидни гидролизланиши натижасида ҳосил бо'ладиган маҳсулотлар о'з таркибида радиоактив нишонланган *C-oxirgi* аминокислотага эга бо'лади. Гидролизатни хроматграфия қилиш ва радиоактивликни о'лчаш орқали

oqsil ёки аминокислотани C-oxirgi аминокислотаси қиёсланиб, о'хшашлиги аниқланади.



Баъзи ҳолатларда тритий пептид занжирини о'ртасида жойлашган аспарагин ва глутамин кислоталарни таркибига кириб қолади. Пролиннинг C-oxirgi аминокислотаси бу шароитларда оксазолон ҳосил қилмайди, треонин ва сериннинг сирка ангидрид таъсирида деградацияга учраши натижасида C-oxirgi қолдиқлари таркибига етарли миқдорда радиоактив нишон киритиб боўлмайди. Аминокислоталарни C-oxirgi учини аниқлаш учун карбоксипептидазалар билан ферментли гидролиз усулидан фойдаланилади.

Дансил усули. Эдман усулини шаклларида бири бўлиб, пептидлардаги N-охирги аминокислоталарни дансил ҳосилалари тарзида аста-секин деградациялашдан иборат (ДНС-Эдман). Бу усул бо'йича аниқлашда деградациялашн ҳар бир циклидан олдин N-охирги аминокислотани аниқлаш учун пептидни маълум бир аликвот қисми текшириш учун олинади. Бу усулни аhмаиятга молик томонлари бу ДНС-аминокислоталарни аниқлашдаги юқори сезгирлик ва деградациялашни ҳар бир босқичида пептидларни ФТК-ҳосилаларини бензол билан экстркациялашни амалга оширилмаслиги ҳисобига намунанинг камроқ йо'қотилишидир.




Fermentli usullar. Oqsil va peptidlarni tuzilishini aniqlash uchun polipeptid zanjirining N- va C-oxirgi aminokislota qoldiqlarini parchalanishini katalizlovchi fermentlarni `qo'llash mumkin. Peptidlarni karboksipeptidazalar yordamida gidrolizlash orqali aminokislotalar C-oxirgi uchini va C-oxirgi ketma-ketligini aniqlashning asosiy usuli hisoblanadi. Peptid va oqsillarni tuzilishini aniqlashda A,V,S va Y



karboksipeptidazalardan foydalaniladi. Karboksipeptidaza A (C'A) va V (C'V) yirik shoxli qoramolni oshqozon osti bezidan, karboksipeptidaza C (C'C) tsitrus o'simliklarining po'stlog'i va bargidan, karboksipeptidaza Y(C'Y) xamirturushdan ajratib olinadilar. Karboksipeptidazalarni tahsir etishi uchun substrat o'z tarkibida C-oxirgi aminokislotada α -karboksil guruhga ega bo'lishi lozim. Ajralib chiquvchi aminokislotani yon zanjirini tabiati peptid bog'ini gidrolizlanish tezligini belgilovchi asosiy omildir. C-oxirgi aminokislotani ajralish tezligiga u bilan yonma-yon joylashgan guruhni tabiati ham tahsir qiladi. Yonma-yon joylashgan aromatik yoki alifatik yon zanjirga ega aminokislotalar va dikarbon aminokislotalarni qoldiqlari C-oxirgi aminokislotani ajralishini tezlashtiradi. Bunga qarama-qarshi ravishda litsin va prolin yonma-yon joylashsa gidroliz tezligi sekinlashadi. Barcha aminokislotalar A va C karboksipeptidazalar bo'yicha parchalanishini 4 guruhga bo'lsa bo'ladi.

Ajralish turi	C'A	C'C
Tezkor ajralish	Tyr, 'he, Leu, Tr', Ile, Met, Thr, Gln, His, Ala, Val, Hser	'hr, Tyr, Tr', Leu, Ile, Val, His
Sekin ajralish	Asn, Ser, Lys, MetCO ₂	Ser, Thr, Met, Ala, As' Asn, Glu, Gly, Lys, Arg, 'ro, CMCys
Juda sekin ajralish	As', Gln, Gly, CMCys, CysSO ₃ H	Gly
Ajralmaydi.	'ro, Hy'ro, Arg	Hy'ro

Dipeptidlarni polipeptid zanjirda joylanishini dipeptidlar ajralishi kinetikasi yoki "domino" usuli orqali aniqlanadi."Domino" usulida DAP 1 bilan gidroliz dastlabki va bitta aminokislotaga qisqartirilgan (Edman usuli orqali) peptidda amalga oshiriladi. Bunda bir-birini qoplovchi aminokislota ketma-ketligiga ega dipeptidlar hosil bo'ladi.



Peptidlar molekularida peptid bog'idagi karbonil guruhining kislorod atomlari va shu bog'dagi azot atomlari eng oson ionlanadilar. Hosil bo'layotgan ionlarni parchalanishida musbat zaryadga β -xolatda joylashgan bog'lar parchalanadi. Bunday parchalanish natijasida peptid hosilalarining molekulyar ionlaridan aminokislota (A) va aldimin (a) fragmentlari hosil bo'ladi.



Текширилган peptidni molekularini birlamchi ionlanishida musbat zaryad turli kislorod va azot atomlarida lokallangani uchun, keyingi parchalanishda imkon bori A va a fragmentlanishni mahsulotlari hosil bo'ladi. Aminokislota va aldimin fragmentlarini mass-spektrda aniqlash peptidni tuzilishi haqida asosiy mahlumotni beradi.

Фенилизотиоцианат усули. Аминокислота кетма-кетлигини аниқлашда асосий усул бо'либ, 1950-1956 йилларда Р.Едман томонидан тавсия этилган полипептид занжирини фенилизотиоцианат(ФИТЦ, $C_6H_5-N=C=S$) ёрдамида деградациялаш усули ҳисобланади. Эдман усули N-охирги аминокислоталарни фенилтиогидантоин (ФТГ) тарзида кетма-кет парчалашга имкон беради. Деградацияланишнинг ҳар бир цикли тўрт босқичдан иборат бўлади: 1) фенилтиокарбомоил(ФТК)-пептидни ҳосил бўлиши; 2) N-охирги аминокислотанинг анилинотиазолинон тарзида ажралиши; 3) тиазолинонни ФТГ га изомерланиши ва қийслашиб, ўхшашлигини аниқлаш. Биринчи босқичда ФИТЦ пептидни протонга эга эмас α -аминогурухига бирикади. Реакция учувчан буфер системаларда (pH 9.0-9.5) олиб борилади; асос сифатида учламчи ёки гетероциклик аминлардан (триэтиламин, диметилаллиламин, пиридин) фойдаланилади. Бу босқични унути кўшимча реакциялар ҳисобига камайиши мумкин. Пептидни ФТГ-гуруҳини ҳаво кислороди таъсирида оксидловчи десулфирланиши, эритувчи ва реагентлардаги оз миқдордаги алдегидлар ҳисобига пептидларни α -аминогурухини Шифф-асосларини ҳосил қилиши шундай реакцияларга киради. Шунинг учун пептидларни Эдман усули бо'йича деградацияланиш инерт газ атмосферасида ва олдиндан изчил тозаланган реагентлар иштирокида амалга оширилади. Ишқорий шароитларда ФИТЦ дифенилтиомочевина ва анилин ҳосил қилиб гидролизланади. Қо'шимча маҳсулотлар аминокислота фенилтиогидантоинларини аниқлаш учун қийинчилик туг'дирадидилар, шунинг учун бирикиш босқичидан со'нг реакция аралашма ФИТЦ ва қо'шимча маҳсулотлардан тозалаш учун экстракция қилинади. Деградацияланишни иккинчи босқичида сувсиз кучли кислотани иштирокида (одатда трифторсирка кислота) N-охирги аминокислота 2-анилино-5-тиазолин ҳосил қилиб ажралади, кейинги аминокислотани α -аминогуруҳи эркин ҳолатга келади. Реакция осонлик билан боради ва полипептид занжири бир текисда парчаланаяди, аммо глутамин қолдиг'и пептидда N-охирги келганда деградацияланишни то'сувчи пироглутамин кислотага айланиши мумкин.

Генетик код. Кодон ва аминокислоталар системаси

Первое нуклеосованиие	Второе нуклеосованиие				Третье нуклеосованиие
	T	C	A	G	
T	Phe	Ser	Tyr	Cyr	T
	Phe	Ser	Tyr	Cys	C
	Leu	Ser	STOP	STOP	A
	Leu	Ser	STOP	Trp	G
C	Leu	Pro	His	Arg	T
	Leu	Pro	His	Arg	C
	Leu	Pro	Gln	Arg	A
	Leu	Pro	Gln	Arg	G
A	Ile	Thr	Asn	Ser	T
	Ile	Thr	Asn	Ser	C
	Ile	Thr	Lys	Arg	A
	Met (START)	Thr	Lys	Arg	G
G	Val	Ala	Asp	Gly	T
	Val	Ala	Asp	Gly	C
	Val	Ala	Glu	Gly	A
	Val	Ala	Glu	Gly	G

Матрица РНК орқали оксил синтези учун ДНКдан рибосомага генетик кодни узатиш схемаси.




Ўқитишнинг кейс стади усули тиббиёт, бизнес ва ҳуқуқшуносликда кенг тарқалган. Ўз соҳасини ўқитиш учун бу фанлар ҳақиқий ёки моделлардан фойдаланиб ўқитилади. Охириги йилларда ўқитишнинг бу усули кимё ўқитувчилари орасида ҳам тарқалди. Тематик тадқиқот усули талабаларга ўқитиш жараёнида ҳаёт муаммоларининг ечимини, аналитик ишлаш ва кўникмаларини ҳосил қилишни

ўргатади. Шунда талабалар мавзуни алоҳида ёки команда бўлиб ишлашни ўрганадилар. Ўқитувчидан фақат бошқариш ва бажарилган ишни тақдирлаш талаб қилинади. Анъанавий маъруза тинглаганда талаба конспект ёзади ва тегишли хулосалар чиқаради. Семестр охирида олинган билимларни такрорлаб берадилар. Талабаларни фанга бўлган қизиқишини ошириш учун мавзу бўйича тадқиқот ишлари олиб борилса мақсадга мувофиқ бўлади. Масалан, цисплатин очилиш тарихини тушунтириш мумкин. Биринчи бор М.Пейрон томонидан 1844 йилда кашф қилинган ва бу модда пейрон-хлорид деб номланган. 1893 йилда унинг тузилишини Алфред Вернер ўрганган ва йиллар давомида ноаниқликлар туфайли қолиб кетган. 1960 йиллар бошларида Мичиган университетиде Барнетт Розенберг лабораториясида бир неча экспериментлар специфик натижаларини кўрсатдилар. Хужайрага электр токининг эффектларини ўлчаш учун мўлжалланган тажрибалар ичак таёқчаларнинг ўсишига олиб келди, улар 300 марта нормал узунлигидан катта эди. Бу эффект электр токи натижасида юзага келмаган, балки инерт платинадан ясалган электрод ва эритма компонентлари орасида реакция ўтиб, кимёвий реагент ҳосил бўлган. Кейинчалик бу реагент цисплатин деб номланган. Тажрибалар натижасида хужайралар бўлиниши тўхтатилгани билан, бактериянинг ўсиш жараёни давом эттирилгани кузатилган. Бундай самара берган цисплатинни Барнетт гуруҳи сичқонларнинг ўсимталарига қарши текширган. Ўсимталарни бартараф қилиш цисплатин моддасида жуда юқори бўлгани аниқланган. Одамларда бундай тажриба ўтказишга цисплатиннинг токсик ножўя таъсирлари йўл қўймади. 1978 йилда ножўя таъсирларини йўқотиб цисплатин фойдаланишга топширилган.


Мавзуни ўзлаштириш учун саволлар.

1. Цисплатин ўзи нима?
2. Цисплатин қандай ҳосил бўлади?
3. Цисплатин тузилишини кўрсатинг.
4. Одам соғлиғи учун цисплатиннинг қандай ҳавфи бор?
5. “Хужайра бўлиниши” атамасини қандай тушунасиз?
6. Саратон касаллигига қарши таъсир механизми қандай бўлади?




Цисплатин

(2.9)



Карбоплатин

(2.10)



Кимё билан боғланган 1,2, ва 3 саволлар орқали талабалар цисплатин формуласини, тузилишини ва синтез йўллариини тушуниб оладилар. Шунингдек, координацион бирикмалар концепциясини қайта кўриб чиқишлари керак, яъни координацион сон ва геометрияси. 4 савол биоорганик кимё билан боғлиқ бўлиб, талабаларга одам организмидаги ўтиш металларни тушунишга ёрдам беради. 5 ва 6 саволга талабаларда биология фанидан фундаментал билимлар бўлиши шарт.

Талабаларни учта гуруҳга бўлиб, ҳар бир гуруҳга савол берилади ва улар лекциядан ташқари вақтда кутубхона, интернет ресурсларидан фойдаланиб, жавобларни топишга ҳаракат қиладилар. Кейинги маърузада талабалар ўз гуруҳларининг натижаларини тақдим қиладилар.

Хулоса. Бу ёндашувни маъруза вақтида ишлатиш билимга чанқоқ талабалар учун афзаллиги бор. Бошқа талабалар улардан ўрганадилар ва ниҳоятда модданинг таъсир механизмини биргаликда тушунтириб берадилар.

IV. АМАЛИЙ МАШҒУЛОТ МАТЕРИАЛЛАРИ

1-амалий машғулот: Органик моддалари тузилиши ҳақида замонасий тасаввурлар.

Рус олими А.М. Бутлеровнинг кимёвий тузилиш назарияси органик кимёнинг асосий назариясидир. У органик кимёнинг барча назарий тушунчалари асосида ётади. Назариянинг икки хил таърифи мавжуд: А.М. Бутлеров таърифи ва ҳозирги замон таърифи.

➤ **А.М. Бутлеров таърифи:**

Мураккаб заррачаларнинг кимёвий табиати унинг таркибига кирувчи элементлар заррачаларининг табиатига, уларнинг миқдорига ва кимёвий тузилишига боғлиқ.

Бу таърифдаги асосий фикр модданинг кимёвий тузилиши бўлиб, у молекуладаги атомлар бир-бир билан қандай тартибда боғланганлигига эътибор беради. Молекула таркибидаги атомлар хили ва уларнинг сони бир хил бўлсаю, аммо улар бир-бир билан турли тартибда боғланган бўлса, уларнинг хоссалари ҳам хар хил бўлади. Маълумки, бундай моддалар **изомерлар** деб аталади. Модда таркибидаги атомлар бир-бири билан қандай боғланганлигидан қатъий назар, улар бир-бирига таъсир кўрсатиб туради, шу таъсир туфайли модданинг хоссалари шаклланади ва бу билан у атомларнинг оддий механик аралашмасидан фарқ қилади.

А.М Бутлеров таърифи модданинг хоссалари унинг электрон ва фазовий тузилиши ҳам таъсир қилишини ҳисобга олмайди.

➤ **Ҳозирги замон таърифи:**

Органик бирикмаларнинг физик ва кимёвий хоссалари унинг таркибига ҳамда кимёвий, электрон ва фазовий тузилишига боғлиқ.

Бу таъриф модданинг хоссаларига боғлиқ бўлган ҳамма факторларни ҳисобга олади. қуйида келтирилган мисоллар фикримизни тасдиқлайди.

Мисоллар:

1. *Метан билан n-гексаннинг хоссаларини солиштиринг.*

Ечиш: метан CH_4 ҳам, гексан C_6H_{14} ҳам фақат углерод ва водороддан ташкил топган улгероководороддир. Улар бир-биридан таркибидаги углерод ва водород атомларининг сони билангина фарқ қилади. Шунинг учун улар бир-биридан аввало,

физик хоссалари билан кескин фарқ қилади. Метан одатдаги шароитда газ, гексан эса суюқликдир. Уларнинг кимёвий хоссаларида ҳам фарқ бор. Масалан, термик крекинг вақтида гексан метанга нисбатан осон парчаланеди, хлорлаш, нитролаш ва оксидлаш реакцияларига ҳам гександа осонроқ кетади.

2. Этил спирти билан диметил эфирнинг хоссаларини солиштиринг.


Ечиш: Этил спирти ҳам, диметил эфири ҳам бир хил таркиб C_2H_6O га эга. Улардаги атомлар сони ҳам, тури ҳам бир хил. Аммо бу бирикмалар бир-биридан таркибидаги атомларнинг ўзаро боғланиш тартиби билан фарқ қилади:




Шунинг учун уларнинг хоссалари ҳам ҳар хилдир. Масалан, оддий шароитда этил спирти суюқлик, диметил эфири эса газдир. Этил спирти натрий метали билан реакцияга киришади, диметил эфири эса реакцияга киришмайди ва ҳ.к.

3. Аммиак билан трифениламиннинг хоссаларини солиштиринг.

Ўзбекистоннинг ўсимлик дунёси ғоят ранг-баранг. Бу ҳудудда дунёнинг бошқа минтақаларида учрамайдиган эндемик турлар жуда кўп, – дейди Марбург (Германия) университети фармацевтика факультети профессори Михаел Койзген. – Олимларингиз юртингиз флорасининг ўзига хос хусусиятларини кенг ўрганиш юзасидан чуқур илмий изланишлар олиб бормоқда. Бу жараёнда халқаро ҳамкорликка кенг йўл очилгани фан тараққиётини янада юксалтириш ва унинг ютуқларидан жамият ривожини йўлида фойдаланишда муҳим омил бўлаётир. Ана шундай имкониятлардан фойдаланиб, биз ҳам ўзбекистонлик ботаниклар билан ҳамкорликда илмий лойиҳаларни амалга оширмоқдамиз.

Ўсимлик моддалари кимёсининг назарий ва амалий масалалари, табиий бирикмалар кимёси, технологияси ва фармакологиясининг истиқболларига оид ишлар тингланади ва муҳокама қилинади. Бу борада мамлакатимиз ва жаҳон илм-фани кўлга киритаётган ютуқлар, ечимини кутаётган долзарб вазифалар ва халқаро ҳамкорлик алоқаларини кенгайтиришга доир масалалар хусусида фикр алмашилади.

Этил спирти - дунёда энг кўп синтез қилинувчи ва тиббиётда кенг қўлланилувчи маҳсулотлардан бири дир. Шу боис, этанолга бўлган талаб анча юқори. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси С.Юнусов номли Ўсимлик моддалари кимёси институти олимлари ширин жўхоридан этанол олишнинг янги усулини яратишди. Ушбу ихтиро спирт олиш учун жўхори ўсимлиги хом-ашёсига янги усулда ишлов беришдан иборат. Унда этанол олишнинг икки усули таклиф этилган ва айнан шу жиҳати билан муҳим аҳамиятга эга. Бунинг натижасида ўсимликнинг поя қисми ва донидан шакар моддалари чиқиши самараси кўпаяди.

Ўзбекистон Фанлар Академияси Ўсимлик моддалари кимёси институти, Польша Халқ Республикаси Варшава давлат университетининг биология ва кимё марказлари ҳамда Ўзбекистон Миллий университетининг биология факультетини мутахассислари ўртасида уч томонлама ўзаро ҳамкорлик ишларини олиб бориш тўғрисидаги битим масалалари кўриб чиқилди.

Табиат инсон яшаш фаолиятини яхшилаш учун кўп турдаги табиий ресурсларга эгадир. Хусусан, Ўзбекистон ўзига хос иқлими, тоғлик ҳудудлари, чўл-адирларига эга бўлганлиги сабабли мамлакатимиз ҳудудида ўсадиган кўп турдаги ўсимликлар дунёнинг кўп жойларида ўсмайди. Шу сабабли Ўзбекистон Фанлар Академияси, Ўзбекистон Миллий Университети ҳамда Польша Халқ Республикаси Варшава давлат университетининг биология ва кимё марказлари ўртасида фармацевтика соҳасини ривожлантириш, табиий ўсимликлардан фойдаланиб косметик маҳсулотларни ишлаб чиқариш мақсадидаги уч томонлама ўзаро ҳамкорлик битимларини ишлаб чиқиш юзасидан келишув тадбири ташкиллаштирилди.

Учрашувда ўзаро келажакдаги ҳамкорлик лойиҳаларини амалга ошириш, биргаликда фармацевтика соҳасини ривожлантириш, ижтимоий соҳадаги алоқаларни кенгайтириш масалалари муҳокама қилинди.

Бу борада Польша Халқ Республикасининг Варшава Давлат университети профессори "ЎзРепорт" АА мухбирига берган интервьюсида шундай деди: менинг Ўзбекистон Давлат Миллий университети билан алоқам 1980 йилдан мавжуддир. Янги технологиялар асосида кимё маҳсулотларини, жумладан, косметика соҳасида янги турдаги маҳсулотларни олиш керак. Бу турдаги ўзаро ҳамкорлик давлатларимиз ўртасидаги алоқаларни мустаҳкамлашга, ўзаро лойиҳаларни амалиётга тадбиқ этишга хизмат қилади деб умид қиламан.

Шунингдек, Ўзбекистон Фанлар Академияси Ўсимлик моддалари кимёси институти директорининг фан бўйича ўринбосари Н.Абдуллаев ўз интервьюсида шундай фикрни билдирди: Бизнинг асосий мақсадимиз, табиий ўсимликлардан олинадиган биологик фаол моддаларни косметика йўналишида амалиётга қўллаш. Косметикада табиий моддаларни қўлланиш муаммоси ҳозир биринчи ўринда туради. Чунки табиий моддалар хусусияти ва аҳамияти ўзига хосдир. Табиатдаги ҳар бир модда айнан бирон бир мақсад учун яратилган, хусусан ўсимликлар ҳам. Уларнинг ҳар бирини ўз биологик фаоллиги бор. Биз ушбу фаолликни аниқлаб, тўғри йўналишда ишлата билсак, халқ хўжалигига қўшган ҳиссамиз бўлади".

2.2. Биоорганик ва ўсимлик моддалари кимёсининг долзарб йўналишлари ҳамда бугунги кундаги асосий ютуқлари ва муаммолари.

Биоорганик кимё фани ўтган асрнинг 60-70-йилларида ташкил топиб ривожлана бошлаган. Табиий биологик фаол бирикмаларнинг тузилиши ва функциясини ўрганиш, тирик организмлар фаолиятининг биокимёвий, биофизикавий ва молекуляр-генетик механизмларини ўрганиш, биологик фаол бирикмаларнинг таъсир механизмларини ҳужайра ва молекуляр даражаларда ўрганиш ва улар таъсир қиладиган самарали нишонларни аниқлаш, дори препаратлари, озик-овқат маҳсулотларининг биоҳавфсизлигини диагностика қилиш ва уни баҳолаш учун тест-системалар, ўсимликларни кимёвий ҳимоя қилиш воситаларини ишлаб чиқиш ва биотехнология методлари ёрдамида кўрсаткичлари яхшиланган қишлоқ хўжалик маҳсулотларини яратиш бутун дунё олимларининг асосий вазифаларидан бири ҳисобланади.

1973 йилда Тошкент давлат университети “Табиий бирикмалар кимёси” лабораторияси, кафедраси ва ғўза целлюлозаси кимёси, технологияси Илмий-тадқиқот институтининг ғўза кимёси лабораторияси базасида бўлим ташкил этилган бўлиб, у 1977 йили ЎзР ФА Биоорганик кимё институтига айлантирилган.

Ғўза таркибидаги моддаларни комплекс кимёвий ўрганиш ўта самарали эканлиги аниқланган ва Ўзбекистоннинг ушбу асосий техник экинини қимматли

моддаларга бой эканлиги кўрсатиб берилган. Кўп йиллик тадқиқотлар натижасида 100 дан ортиқ индивидуал бирикмалар, шулар қаторида органик, ёғ кислоталари ва аминокислоталар, юқори молекуляр спиртлар ва углеводородлар, углеводлар, витаминлар, кўплаб полифенол бирикмалар (флавоноидлар, антоцианлар, лейкоантоцианлар, танинлар, госсипол ва бошқалар) ажратиб олинган ва ўрганилган. Госсипол асосида 200 дан ортиқ ҳосилалари синтезланган бўлиб, уларни структуравий-функционал таҳлил қилиш натижасида уларнинг баъзилари ўсмаларга қарши, иммуномодулловчи, вирусларга қарши, интерферон ишлаб чиқарувчи ва бошқа фаолликларга эга эканликлари кўрсатиб берилган ва улар асосида оргинал маҳаллий доривор препаратлар яратилган.

Тадқиқотлар натижасида институт фаолиятининг марказий йўналишларидан бири ҳисобланган ўсимлик ва ҳайвонлардан ажратилган оксил-пептид биорегуляторларининг тузилиши ва таъсир механизми аниқланган, биринчи марта биорегуляторларнинг (дефолиант ва этиленнинг ғўза билан) ўзаро таъсир этиш механизмлари очиб берилган, бу эса ғўзанинг дефолиация сабаблари ва бу жараёнларда биорегуляторларнинг ролини аниқлаш имконини берди.

ЎзР ФА академик О.С.Содиқов номидаги Биоорганик кимё институти 1977 йили ташкил топган, 2012 йили унинг таркибига Биокимё институти ва Физиология ва биофизика институтининг илмий потенциали кўшилган. Институт бугунги кунда Биоорганик кимё соҳаси бўйича фаолият юритиб келаётган Ўрта Осиёда ягона илмий марказ ҳисобланади

Илмий тадқиқотларнинг асосий йўналишлари:

- табиий биологик фаол бирикмаларнинг тузилиши ва функциясини ўрганиш;
- норма ва турли патологияларда тирик организмлар фаолиятининг биокимёвий, биофизикавий ва молекуляр-генетик механизмларини ўрганиш;
- биологик фаол бирикмаларнинг таъсир механизмларини ҳужайра ва молекуляр даражаларда ўрганиш ва улар таъсир қиладиган самарали нишонларни аниқлаш;
- дори препаратлари, озик-овқат маҳсулотларининг биохавфсизлигини диагностика қилиш ва уни баҳолаш учун тест-системалар, ўсимликларни кимёвий ҳимоя қилиш воситаларини ишлаб чиқиш ва биотехнология методлари ёрдамида кўрсаткичлари яхшиланган қишлоқ хўжалик маҳсулотларини яратиш;
- маҳаллий ўсимлик ва ҳайвон хомашёлари асосида оргинал доривор воситаларни яратиш;
- ўсимликлар ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини экологик хавфсиз ҳимоя воситаларини яратиш;
- ўсимлик ва ҳайвон хомашёсидан иккиламчи маҳсулотларни қайта ишлашнинг илмий ҳажмдор технологияларини ишлаб чиқиш ва ўзлаштириш.
- **Фундаментал тадқиқотларнинг муҳим натижалари:**

- *Malvaceae* ўсимлиги ва анъанавий озуқа ўсимликларининг уруғидан ажратиб олинган биоцид пептидларнинг физикавий-кимёвий характеристикаси, микроб ва инсектицидга қарши фаолликлари систематик ўрганилди. Пептидларнинг Н-охиридаги аминокислота кетма-кетликлари ва ғўзанинг вилтга чидамлилиқ даражаси билан фарқланадиган турли навлари ва линияларидаги биоцид пептидларнинг миқдори, уларнинг фунгицид фаоллиги ва замбуруғ касалликлари билан зарарланиши ўртасидаги боғлиқлик ўрнатилди. Ғўзаларнинг барча навларида 2С албуминларга кирувчи молекуляр оғирлиги 10635 Да бўлган полипептид мавжудлиги аниқланди. Турли навли ғўзаларнинг патогенларга чидамлилиги ва 2С албуминлар миқдори ўртасидаги боғлиқлик аниқланди. Ғўзага патоген юққанидан кейин ундаги химоя оқсиллари - 1,3- α -глюканаза ва хитиназалар биосинтезининг тезлиги ва унингчидамлилиги ўртасидаги боғлиқлик аниқланди. Ғўзанинг янги навлари ва линияларининг вилтга чидамлилигини баҳолаш учун хитиназа ва 1,3- β -глюканаза миқдорини иммунофермент таҳлил қилиш йўли билан тест-система ишлаб чиқилди. Ғўзанинг очиқ уруғли линиясидан целлюлоза синтезланишини сусайтирадиган оқсил ажратиб олинди. Ушбу оқсилнинг целлюлоза биосинтезига таъсири ўрганилди ва бунда целлюлоза ҳосил бўлиши сусайганлиги аниқланди. Ажратиб олинган оқсил целлюлоза ҳосил бўлишида иштирок этадиган асосий фермент – глюкансинтезанинг фаоллигини 94%га пасайтиради ва у чигитларнинг тукланишига жавобгар ген-ингибитор маркери сифатида қизиқиш уйғотади.

Комплексларнинг липид матрикс билан ўзаро таъсирлашганида парчаланиши ҳисобига госсипол ва унинг ҳосилаларининг молекулалари липид фазага ўтиши кўрсатиб берилди. Маълум бўлишича, госсиполнинг сувда эрувчан комплекслари ва унинг ҳосилалари сувда эрувчанлиги сабабли вирусларга қарши фаолликка эга бўлган доривор воситаларни яратиш учун энг самарали ҳисобланади. Госсиполнинг деярли барча қуйи молекуляр моддалари билан бирга бирикма ҳосил қиладиган ноёб ва универсал клатратоген бирикма эканлиги аниқланди, универсал хўжайинларнинг клатратларига полиморфизм ҳодисаси хос эканлиги аниқланди; - гомоген ва гетероген муҳитларда карбоксиметилцеллюлоза ва целлюлоза сульфатининг структураланиши ўрганилди. Бириктирилган маҳсулотнинг структураси ва физикавий-кимёвий хоссаларига таъсири, бириктирилаётган агентнинг функционал гуруҳларининг табиати, унинг катталиги ва макромолекуланинг конформацион ҳолати кўрсатиб берилди, параметрлари молекуляр бошқариладиган полисахаридлар сульфатининг синтези қонуниятлари аниқланди, уларнинг физикавий-кимёвий параметрлари тавсифланди ва биринчи марта уларнинг микробларга қарши фаол эканлиги аниқланди.

Мултирезистент бактериялар, вируслар (гепатит С, лейкомия, ОИТВ-1) гликопротеинлари ва протеогликанларнинг модел структуралари асосида, сульфатланган моносахаридлар ва полисахаридлар (галактоманнан,

целлюлоза, пектин, арабиногалактан) мисолида компьютерда моделлаш йўли билан комплекслар ишлаб чиқилди. Бу комплекслар патогенларни комплекс ҳосил қилиш йўли билан ингибирланишини кўрсатади; олинган натижалар тажрибаларда исботланган;

Биринчи марта ўсимлик хомашёсидан фитопатоген фаолликка эга бўлган 20 дан ортиқ гомоген пептидлар ажратиб олинди. Уларнинг молекуляр параметрлари ва аминокислота кетма-кетликлари, ҳамда фитопатоген фаолликлари аниқланди. Ажратиб олинган пептидлар ўзанинг трансген навларини яратишда маркер сифатида қизиқиш уйғотади. Биринчи марта очик уругли ўзадан тола ҳосил бўлишини сусайтирадиган оқсил ажратиб олинди ва тавсифланди, ўза толасининг ҳосил бўлишининг молекуляр механизмларининг жиҳатларидан бири очиб берилди.

Маълум бўлишича, хлорофилл флуоресценциясининг спектрал-кинетик характеристикалари атроф-муҳит шароитларига қараб сезиларли даражада ўзгариб туради. Тупроқ шўрланиши натижасида хлорофиллнинг лазер билан индусирланган флуоресценцияси спектрларининг турли участкаларидаги интенсивликлар ўртасидаги нисбатнинг бузилиши, сув танқислигида эса флуоресценциянинг сўниш вақтининг доимийлиги ортиши кўрсатиб берилди. Биринчи марта термитларга қарши ишлатиладиган ўзига чакирувчи-инсектицид тузоқларга қўйиш учун табиий ва синтетик аттрактантлар - ҳашаротларнинг метаморфозига таъсир қиладиган моддалар олинди.

Назорат саволлари:

1. Ўзбекистон Фанлар академияси Ўсимлик моддалари кимёси институтида қандай лабораториялар иш олиб боради?
2. Ўсимлик моддалари кимёси институтида нечтадан ортиқ алкалоидлар ажратиб олинган?
3. Қашфиётлар натижасида қандай фанлар вужудга келиши кузатилди?

Фойдаланилган адабиётлар

1. Paul T. Anastas, Julie B. Zimmerman. Innovations in Green Chemistry and Green Engineering. Hardcover, Springer, Germany, 2013.
2. A. Valavanidis and T. Vlachogianni GREEN CHEMISTRY and GREEN ENGINEERING ATHENS, 2012. 117-120
3. Darrell Ebbing, Steven D. Gammon, General Chemistry 11th Edition, USA, 2016
4. Robert A., Hoffman Organic chemistry New Mexico State University, 2004
5. Baodi Gou. Contemporary teaching strategies in general chemistry. The China Papers, July 2003. P.39-41.
6. A.K. Naghi. Modern Nanochemistry. Nova Science Publishers. USA, 2011.
7. Garry G. Azgaldov. Applied qualimetry: its origins errors and misconceptions. Emerald Group Publishing Limited. 2011.

8. N.S. Merkulova, Linda M. Klabunde, Nanochemistry, Copyright 2013
9. Wolf E.L. Nanopiysics and nanotechnology. An introduction to Modern Concepts in Nanoscience. Wein'eim: Wiley – VCh Publication, 2004. 300.

Фармацевтик кимё соҳасида янги препаратлар олиш илмий тадқиқотлар натижаси сифатида

Сўнги йилларда энг муҳим кимёвий ривожланган саноатлардан бири, бу Фармацевтика саноатидир, муҳим мавқега эга бўлган катта инновацион ғоялар асосида ўзгаришлар бўлмоқда. Ривожланган мамлакатларда фармацевтика ва фармацевтика саноати илмий-тадқиқот институтларида килинадиган илмий ишлар натижасида бир вақтнинг ўзида янги юқори намунали дорилар ишлаб чиқарувчи корхоналар асосида ривожланмоқда.

Фармацевтика саноатида ишлаб чиқарилаётган кимёвий моддалар, яъни маҳсулотлар атроф-муҳит хавфсизлигига таъсир қилмаслиги, инсон саломатлиги учун соғлиқни сақлаш қоидаларга риоя қилишлиги энг муҳим вазифа ҳисобланади.

Фармацевтика саноатидан яхши кўплаб интенсив фойдаланиш учун маълум нефт-кимё бошланғич материаллар, анъанавий синтетик йўналишлар анъанавий методларни, саноат жараёнлар учун юқори энергия талаблари бўлишини, тозалаш ва ишлаб чиқариш учун органик эритувчилардан тўғри танлашни тақазо қилади.

Глобал миқёсда Фармацевтика саноати кимёвий энг даромадли саноат ҳисобланади, ишлаб чиқарилган дорилар қиймати (2008) ~ 740 миллиард \$. бўлиб, ҳар йили 5-6% ўсиб ортади. Фармацевтика саноатида ушбу дорининг (бозор савдо) ярмидан кўпи АҚШ да (53,5%), Европа Иттифоқи мамлакатларида 28% ва Осиё-Тинч океани (Япония, Австралия) дорилар қиймати 18,5% да ишлаб чиқарилади. Беш мамлакатлардан АҚШ, Германия, Буюк Британия, Япония ва Франция энг фармацевтика саноати ривожланган давлатлар ҳисобланади (глобал фармацевтика).

Дори маҳсулотлари ишлаб чиқариш натижасида фармацевтика саноати бошига кўпроқ чиқинди чиқаради. Бошқа кимё саноати (нефт-кимё, қуйма, кимёвий моддалар, полимер ва ҳоказо) маҳсулотларига нисбатан фармацевтика саноати органик синтетик маҳсулотлар ишлаб чиқаришда камроқ чиқиндилар чиқаради.

Фармацевтика саноати органик синтетик жараёнлар билан боғлиқ ҳолатда дори ишлаб чиқариш, ажратиш ва уларнинг маҳсулотларини тозалаш учун турли хил органик эритувчилардан фойдаланилади. Органик маҳсулотларнинг маълум чиқинди қиймати ҳамда уларнинг заҳарли хусусиятлари бўлади.

Охириги ўн йилликда фармацевтикада кимёвий ғоялар тарғиб қилувчи ва ишлаб чиқарувчиларнинг сони ортиши билан ишлаб чиқариш жараёнларининг самарадорлиги ошди. Энг инвестициялари катта фармацевтика компаниялардан (Р

& Д) бўлимлари янги дори учун илмий тадқиқот ва тараққиёт капиталининг улушидан фойдаланмоқда.

Сув манбаларини саноат чиқиндиларидан экологик ифлосланиши натижасида дори ва доривор маҳсулотлар учун нафақат, балки ишлаб чиқариш қоидалари изларидан чиққан. Фармацевтика саноатида ишлаб чиқаришни тўғри йўлга қуйиш учун кам заҳарли реагентлардан фойдаланиш, чиқинди сувлар ва қаттиқ чиқиндиларни камайтириш керак бўлади.

АҚШ дунёдаги энг катта фармацевтика компаниялари эга, дори ва тиббий маҳсулотларни 50% ортиқ ишлаб чиқаради.

Органик эритувчи фармацевтика саноатида муҳим масала ҳисобланади. Органик эритувчилардан ацетон (CH_3COCH_3), этанол ($\text{CH}_3\text{CH}_2\text{OH}$)лар кўп, кам заҳари бор метанол (CH_3OH), 2-пропанол ($\text{CH}_3\text{C}(\text{OH})\text{CH}_3$), этил ацетат ($\text{CH}_3\text{COOC}_2\text{H}_5$), изопропил ацетат, метил этил кетон ($\text{CH}_3\text{COCH}_2\text{CH}_3$), 1-бутанол ҳамда бошқа кимёвий моддалар кам ишлатилади.

Ҳозирда давлатимиз раҳбари раҳнамолигида амалга оширилаётган кенг қўламли ислохотлар жараёнида таълим, илм-фан ва ишлаб чиқаришни интеграциялаштиришни кучайтиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бунинг натижаси ўлароқ, мамлакатимиз олимларининг инновацион ишланмалари, улар томонидан яратилган илғор технологиялар сони йил сайин кўпайиб бормоқда. Ўзбекистоннинг бой табиот дунёси, хусусан, хорижда ўхшаши йўқ дори воситалари ва биологик фаол қўшимчалар ишлаб чиқариш имконини бераётир. Сўнгги 20-йилда институт мутахассислари етмиш турдан ортиқ ўсимликни ўрганди, юзга яқин табиий бирикмаларни ажратиб олди. Дунёда илк бор тиббиётда "Аллапинин" антиаритмик препарати жорий этилиб, Ўзбекистон ва чет элда ҳаётий муҳим дори воситалари рўйхатига киритилди.

Фармацевтик кимё, унинг муаммолари ва инновациялари Ўзбекистонда фармацевтика соҳасида умумий қиймати 222.52 млн долларни ташкил қиладиган жами 48 лойиҳа амалга оширилди. Улардан 23таси шу йилнинг ўзидаёқ яқунланади. Бу ҳақида Ўзфармсаноат давлат акциядорлик концернининг Тошкентда ўтказилган, фармацевтика соҳасига хорижий инвестицияларни жалб қилиш масалаларига бағишланган матбуот анжуманида айтилди.

Асосан чет элдан импорт қилинадиган ва талабга мос дори воситаларини ишлаб чиқариш бўйича корхоналарни ташкил қилишга қаратилган лойиҳаларга биринчи даражали эътибор берилади. Булар сирасига юрак-томир касалликларини даволашга мўлжалланган милдронат фармацевтик моддаси асосидаги капсулалари ва ампулалари препаратларни ишлаб чиқаришни ташкил қилиш”; Доривор эритмалар, таблеткалар, малхамлар ва шамлар ишлаб чиқаришни ташкил қилиш”; Фармацевтик моддалар ишлаб чиқаришни ташкил қилиш” сингари лойиҳалар киради.

Охиргийилларда республика фармацевтика саноатига 300 млн долларлик инвестициялар жалб қилинган бўлиб, улардан 100 млн доллари хорижий инвестициялардир. Фармацевтика соҳасида 48 та янги инвестицион лойиҳа амалга оширилади.

«Ўзфармсаноат» ДАК маълумотларига қараганда, бу йил республика дори-дармон саноатида умумий қиймати 222,52 млн. АҚШ долларигатенг 48 янги лойиҳанинг амалга оширилиши белгиланган. Улардан 23 таси шу йил охиригача ишга туширилади. Хусусан, ушбу лойиҳалар асосида талаб юқори бўлган ва четдан келтирилатган дори воситаларини ўзимизда ишлаб чиқариш ўздатутилган.



Бугунги кунда мамлакатимиз фармацевтика саноатида 130 га яқин корхона фаолият кўрсатмоқда. Улардан қарийб 90 таси «Ўзфармсаноат» ДАК тизимидаги корхоналардир. Сўнгги йилларда фарм саноатига 300 млн. АҚШ долларига тенг инвестициялар жалб этилди. Уларнинг 100 млн. Доллари бу тўғридан тўғри хориж сармояларидир. Ўзбекистондаги мавжуд дори-дармон корхоналари капитали тузилмасида чет эллик ҳамкорлар улуши 36 фоизни, маҳаллий ишлаб чиқарувчилар хиссаси эса 64 фоизни ташкил этмоқда.

Кейинги йилларда мавжуд корхоналарнинг ишлаб чиқариш қувватларидан тўлиқ фойдаланиши натижасида 30 турдаги ва 96 фармакотерапевтик гуруҳга мансуб маҳаллий дори воситалари ишлаб чиқарилиб, улар тиббий амалиётга татбиқ этилди. Ишлаб чиқариш ҳажми эса маблаг кўринишида 4,5 баробарга ўсди.

Алкалоидлар соҳасида Ўзбекистон олимларидан академиклар С.Ю.Юнусов ва О.С. Содиқовнинг ўз шогирдлари билан бу соҳада қилган ишлари анча салмоқлидир. С.Ю. Юнусов кашф этган қонуниятга кўра, алкалоидлар эрта баҳорда ўсимликнинг ер усти қисмларига, куз фаслида бир йиллик ўсимликларнинг уруғига, кўп йиллик ўсимликларнинг эса пиёзи, илдизи ва уруғига миқдор жиҳатидан энг кўп йиғилади. 1943-93 йилларда Ўзбекистон ФА ўсимлик моддалари кимёси институтида С.Ю. Юнусов раҳбарлигида 29 оилага мансуб 266 ўсимлик тури ўрганилиб, улардан 913 алкалоид ажрати болинди. Турли гуруҳларга кирувчи 518 янги алкалоиднинг тузилиши аниқланди. Цитизин, галантамин, ликорин каби

препаратларнинг ишлабчиқариш технологияси яратилди, холинестеразага қарши дезоксипеганин гидрохлорид препарати Тошкент кимё фармацевтика заводида ишлаб чиқарила бошланди. Аритмияга қарши дитерпин алкалоиди асосида препаратлар олишнинг янги йўналишлари очилди. Бу препаратлардан аллапинин тиббиёт амалиётида қўллана бошлади. Тиббиёт-биология тадқиқотлари учун бир қатор биореактив препаратлар (бибикулин, аконитин, гелиотрин, империалин, нитрарин) олишга муваффақ бўлинди.

Айни вақтда яна бир янги йўналиш - захарли замбуруғлардан алкалоидлар ажратиб олиш устида тадқиқот ишлари олиб борилмоқда. Тиббиётда турли касалликларни даволашда юздан ортиқ алкалоидлар (морфин, кодеин, кофеин, эфедрин, стрихнин, колхамин, атропин, кокаин, галантамин, цитизин ва қ.к.) қўлланилмоқда. Алкалоидларнинг баъзилари (мас, анабазин ва никотин сульфат) қишлоқ хўжалигида инсектицид сифатида ишлатилади.

Кашандалик ва бангиликнинг "сабабчиси" ҳам алкалоидлардир. Таркибида алкалоидлар бўлган бегона ўсимликларнинг баъзилари (мас, кукмараз ва

Саволлар


1. Ватанимиздаги кимё соҳасида ишлаган олимлардан қайси бирларининг ютуқларини айтиб бера оласиз?
2. Ўзбекистонда координацион бирикмалар кимёси фанига ким асос солди?
3. Кимёвий моддалар ишлаб чиқариш ва улардан фойдаланиш қандай муаммоларни келтириб чиқарди?
6. Фармацевтик кимёнинг муаммолари нималардан иборат?
7. Фармацевтик кимёнинг ривожланиши бўйича янги инновациялари ҳақида қандай маълумотларни биласиз?
8. Наманган, Фарғона,
Янгийўлшаҳарларида қандай полимерлари ишлаб чиқарувчи корхоналари ишга тушган?
9. Ўзбекистонда полимер кимёсининг ишга туширилишига қайси олимнинг ишлари мақса
дга мувофиқ хисобланади?
10. Полимерлар кимёси бўйича Ўзбекистонда қайси олимлари иш олиб боришган?

Фойдаланилган адабиётлар:

1. A.K. Naghi. Modern Nanochemistry. Nova Science Publishers. USA, 2011
2. Garry G. Azgaldov. Applied qualimetry: its origins errors and misconceptions. Emerald Group Publishing Limited. 2011.
3. N.S. Merkulova, Linda M. Klabunde, Nanochemistry, Copyright 2013
4. Wolf E.L. Nanophysics and nanotechnology. An introduction to Modern

V. КЕЙСЛАР БАНКИ

Кейс-стадининг мактаблари



Кейсда муаммони бериш усуллари


1-усул – муаммони кейсолог ифодалайди.

2-усул – вазиятдаги муаммо яққол ифодаланади, лекин бунда вазиятнинг зарур элементларидан бири (масалан, шериклар ҳақидаги) ахборот бўлмайди.

3-усул – матнда вазият субъектлари ўртасидаги зиддият мавҳум ифодаланади.

Демак, кейс-стади усули талабаларда муаммо ечишда фанлараро билимлар олишни ўргатади. Бу усул талабаларда когнитив структураларни ривожлантиришига олиб келади. Шунингдек, талаба ақлига сезиларли ҳисса қўшади. Масалан, 1-расмда координацион бирикма келтирилган. Лиганд ўтиш металли билан бирикма ҳосил қилиш мумкин. Бу жараёнда “лиганд назарияси” тушунчаси бор. Бу назария координацион бирикма ҳосил қиладиган реакция механизмини тушунтириш мумкин. “Координацион сон” тушунчаси бирикмани структураси билан боғлайди. Агар марказий атом ҳар хил координацион сонга эга бўлса, бирикманинг тузилиши

бошқа бўлади. бирикма ва унинг хоссалари ўртасида “юқори ва қуйи спин” рангли оралиқ маҳсулотни ҳосил қилади ва магнетизм хоссасини белглайди¹.




Кейсинг ушбу компоненти ўз ичига қуйидагиларни олади:

- Кейсинг долзарблигини асослаб бериш;
- Унинг таълим мақсади;
- Кейс ечиш натижасида талабалар эришиши мумкин бўлган ўқув натижалари.

Б/БХ/Б ЖАДВАЛИ

Биламан	Билишни хоҳлайман	Билиб олдим

¹Baodi Gou. Contemporary teaching strategies in general chemistry. TheChinaPapers, July 2003. P.40



Назорат саволлари:

1. Алкалоидлар ўсимликлар ҳаётини бошқариб турадиган фаол моддалардир, уларнинг қандай турларини биласиз?
2. ЎзР ФА нинг қайси институтлари алкалоидлар билан ишлайди, бу бўйича қўлга киритилаётган ютуқлар ҳақида умумий маълумотлар беринг?

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Garry G. Azgaldov. Applied qualimetry: its origins errors and misconceptions. Emerald Group Publishing Limited. 2011.
2. Integrating Green Chemistry and Green Engineering into the Revitalization of the Toxic Substances Control Act Kira JM Matus, Evan Beach, Julie B Zimmerman¹ Center for Green Chemistry and Green Engineering, Yale University June 2010

БОШҚА КЕЙСЛАР

1-кейс

Кобальт кофермент В12 таркибига киради. Унда кобальт бешта азот атоми ва аденозиннинг углерод атоми билан боғланган. Кобальт углерод боғининг мавжудлигини ушбу молекулани биринчи биологик металлорганик бирикмаси сифатида тавсифлаш мумкинми?

Фикрингизни асослаб беринг?

2-кейс

Хром. Балоғат ёшидан ўтган одамнинг организмида 6-12 мг хром мавжудлиги ҳамда унинг анчагина қисми терида, шунингдек суяклар ва мушакларда жамланганлиги ҳаммамизга маълум. Табиатда эса хром ноорганик тузлар ва комплекс бирикмалар кўринишида бўлади.

Хромнинг организмдаги биологик роли нимадан иборат?

Хромнинг этишмовчилиги қандай касалликни келтириб чиқаради?

3-кейс

Тиббиётда қўлланилиши ва таъсири жиҳатидан организмда комплекс ҳосил қила оладиган органик бирикмаларни ва комплексларни қандай турларга бўлиш мумкин?

Турларини сананг ҳамда фикрингизни изоҳлаб беринг?

4-кейс

Металлар орасидаги қўш боғ мустақам бўлиб хаттоки юқори температурада ҳам (600°гача) $[Re_3Cl_9]$ группаси бузилмай сақланади. Рений хлориди бошқача тузилишга бўлган $[Re_3Cl_{12}]^3-$ группасини ҳам ҳосил қилади. Бу моддаларни сувда ва спиртда эритилганда ҳам кластер группалари сақланиб қолади. Эритмада металл каркасини ўраб турган боғловчи атомлар гидроксил (OH^-) группасига ёки бошқа ионларга алмашиши мумкинми?

Фикрингизни изоҳлаб беринг?

5-кейс

Глюкоза ва анализ қилинадиган эритмада эриган кислород гел каватига диффузияланади. Бу ерда фермент катализаторлиги остида уларнинг таъсирлашиши натижасида $+H_2O_2$ ҳосил булади. Ҳосил булган H_2O_2 нинг бир қисми платина катодида диффузияланади. H_2O_2 нинг оксидланиши натижасида ячейкадан ток кучи глюкоза концентрациясига пропорционал булган ток ўтади.

Шунга ўхшаш қурилмада Кларкнинг кислород электродини қўллаш мумкинми? Мумкин бўлса қандай ҳолатларда?

VI. МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ МАВЗУЛАРИ

1. Оқсиллар кимёси фани бўйича қўлга киритилган ютуқлар ва инновацияларнинг умумий обзори
2. Биополимерлар кимёси фани бўйича қўлга киритилган ютуқлар ва инновацияларнинг умумий обзори

3. Биоорганик бирикмалар кимёси фани бўйича қўлга киритилган ютуқлар ва инновацияларнинг умумий обзори
 4. Органик кимё соҳаси бўйича қўлга киритилган ютуқлар ва инновацияларнинг умумий обзори
 5. Инсон экологиясининг долзарб муаммолари ва амалга оширилаётган тадбирлар.
 6. Ҳорижий мамлакатлар ва республикаимиз олимлари томонидан фан тараққиётига қўшган ҳиссалари, ишлаб чиқилган инновацион лойиҳаларни ўрганш.
 7. Биоорганик кимёнинг тараққиёт йўналишлари, шу йўналиш бўйича қўлга киритилаётган ютуқлар ва инновацияларни ўрганиш.
 8. Табиий ва синтетик йўл билан полимерлар синтези, қўлга киритилаётган ютуқлар, инновациялар ва амалий тадбиқи мавзуси бўйича кейс-стади ишлаб чиқиш.
 9. Ўсимлик моддалари кимёсининг тараққиёт йўналишлари, шу йўналиш бўйича қўлга киритилаётган ютуқлар ва инновациялар.
 10. Фармацевтик кимё, унинг тараққиёт йўналишлари, истиқболлари, муаммолари ва инновацияларини ўрганиш.
 11. Нанокимё, унинг тараққиёт йўналишлари, истиқболлари, муаммолари ва инновацияларини ўрганиш.
- Фазовий кимё, унинг тараққиёт йўналишлари, истиқболлари, муаммолари ва инновацияларини ўрганиш.

VII. ГЛОССАРИЙ

Термин	Ўзбек тилидаги шарҳи	Инглиз тилидаги шарҳи
coordination number	Координацион сон. Қўшни атом билан иккинчи атомнинг билан бевосита боғ ҳосил қила олиш хусусияти.	The number of adjacent atoms to which an atom is directly bonded.
Complex ion (complex)	Комплекс ион (комплекс). Металл ионининг Льюис асослари (лиганд) билан боғланган жамланма.	Complex ion (complex). An assembly of a metal ion and the Lewis bases (ligands) bonded to it.
Donor atom	Донор атом. Металл билан боғ ҳосил қиладиган атом.	The atom of a ligand that bonds to the metal.
Outer spere	Ташқи сфера - комплекс бирикманинг ички сферасини ташқарисида жойлашган ионлар	Outer spere is a spehere which is behind limits of inner sphere
Chelating ligands	Хелатлар - ички сферада полидентант лигандлардан цикллар ҳосил бўлган комплекс бирикмалар	Chelating ligands are polidentant ligands forming cycles in inner sphere of the complex compounds
<u>X-ray diffraction</u>	Рентген нурларининг дифракцияси – рентген нурланишдаги тўлқин узунлигини қўллаган ҳолда дифракцион расм орқали кристалл қаттиқ жисмларнинг тузилишини аниқлаш усули.	<u>X-ray diffraction</u> is method for establishing structures of crystalline solids using singe wavelength X-rays and looking at diffraction pattern
Superconductor	Ўта ўтказувчи – электр токини қаршиликсиз ўтказувчи моддалар.	Superconductor are substances passing electrical current without resistance.
Critical temperature	Критик температура – моддада ўта ўтказувчанлик хоссаси	Critical temperature is temperature of substence at which propreties of super

	пайдо бўладиган температуранинг қиймати	conductivity have appeared
Critical magnet field	Критик магнит майдон – критик температурадаги магнит майдонининг қиймати	Critical magnet field is magnet field at critical temperature.
dissociation	Эритмадаги ионларга ажралган ҳолатдаги заррачалар	Breaking down of a compound into its components to form ions from an ionic substance.
ionization	Турли энергиялар таъсирида нейтрал молекулани зарядланган ионлар утиш. (Переход нейтральной молекулы в заряженные частицы под действием различных электронов, энергий и т.д.)	a process by which a neutral atom or molecule loses or gains electrons, thereby acquiring a net charge and becoming an ion; occurs as the result of the dissociation of the atoms of a molecule in solution or of a gas in an electric field.
Nanocrystals (Нанокристаллар)	Нано ўлчамдаги яримўтказгич кристаллар деб ҳам аталади. Нанокристаллар исталган жойдан бир неча юздан ўн мингтагача атомнинг кристалланиши натijasида ҳосил бўладиган, “кластер” номи билан танилган агрегатлардир	Also known as nanoscale semiconductor crystals. Nanocrystals are aggregates of anywhere from a few hundred to tens of thousands of atoms that combine into a crystalline form of matter known as a "cluster."
Nanocomposite (Наноккомпозит)	Таркибида камида битта нано ўлчамдаги икки ва ундан ортиқ компонентдан ташкил топган материал. Нанозаррачалар бошқа бир қаттиқ материалда дисперсланган	A material composed of two or more substances, of which at least one has a nanoscale dimension, such as nanoparticles dispersed throughout another solid material.

<p>Carbon nanotube (Углерод нанотрубкаси)</p>	<p>Цилиндрик шаклга эга углерод молекуласи. Углерод нанотрубкасининг (СНТ) тузилиши ва кимёвий боғлари унга ноёб қаттиқлик, электрик ва термик хусусиятларни беради</p>	<p>Carbon molecule with a cylindrical shape. The structure and chemical bonds of CNTs result in unique strength, electrical, and thermal properties.</p>
<p>Colloid (Коллоид)</p>	<p>Бир муҳитда нано- ёки микрозаррачаларнинг чўкмага тушмаган ҳолатда бўлиши; коллоидларга гел, аэрозоль ва эмульсиялар киради</p>	<p>Nanoscale or microscale particles suspended in another medium; colloids include gels, aerosols, and emulsions</p>
<p>Binding Energy (Боғланиш энергияси)</p>	<p>Атомиядросининг, унинг таркибий қисмларин иташқил қилувчунуклонларга парчаланиши учун талаб қилинадиган энергиямиқ дориядронинг боғланиш энергияси дейилади</p>	<p>The amount of energy required to break the nucleus of an atom into its constituent nucleons is called binding energy of the nucleus.</p>
<p>calibration</p>	<p>Аналитик сигнални концентрацияга тугри пропорционаллик графиги (Прямопропорциональная зависимость концентрации от различных аналитических сигналов)</p>	<p>the checking, adjusting, or systematic standardizing of the graduations of a quantitative measuring instrument.</p>
<p>The dimerization of radicals</p>	<p>Диацетиленлар ҳосил бўлиши билан борадиган терминал алкинлар иккита радикалининг ўзаро таъсири</p>	<p>The interaction of two radicals terminal acetylenes to form acetylene</p>

<p>Radioactivity (Радиоактивлик)</p>	<p>Баъзиоғирэлементатомлар ибеқарорядроларининград иоактивнурланишпорқалиў 3- ўзиданпарчаланишҳодиса сигарадиоактивликдейила ди.</p>	<p>The phenomenon of spontaneous disintegration of an unstable nuclei of certain heavy elements with the emission of some radioactive radiation is called radioactivity</p>
<p>electrochemical cell</p>	<p>Электронлар харакати натижасида пайдо булган электр токи</p>	<p>Gives an electric current with a steady voltage as a result of an electron transfer reaction.</p>
<p>Atomic force microscope (Атом куч микроскопи)</p>	<p>Кичик ва юмшоқкерамикёкияримўт казгич намунаюзасинингхусусия тлариданкелибчиққанҳолд аяқинлашишёкисекин- астаузоқлашишпорқали физикюзадананоўлчамдаг иқисмларни (деталларни) суратгаолиббераоладиган ваоғишларнилазерёрдами дакўришмумкинбўлганил мийкурулма</p>	<p>A scientific instrument that can generate images of nanoscale details on a physical surface by scanning a tiny, flexible ceramic or semiconductor probe just above the surface—where it will be attracted or repelled slightly by features on the surface, and the deflection can be detected with the laser.</p>
<p>electromagnetic spectrum</p>	<p>Спектрнинг ультрабинафша ва кўринувчи қисмларида жойлашган ютилиш спектрлари молекуланинг электрон ҳолатлари ўртасидаги ўтишлар ҳисобига ҳосил бўлади, шунинг учун ҳам уларни электрон ютилиш спектрлари дейилади.</p>	<p>Complete range of wavelengths which light can have. These include infrared, ultraviolet, and all other types of electromagnetic radiation, as well as visible light.</p>

IX. АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

I. Ўзбекистон Республикаси Президентининг асарлари

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб хал.имиз билан бирга .урамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тара..иёт йўлимизни .атъият билан давом эттириб, янги бос.ичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Хал.имизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий ба.одир. 2-жилд. Т.: “Ўзбекистон”, 2018. – 507 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Нияти улу. хал.нинг иши .ам улу., .аёти ёру. ва келажак фа.аровон бўлади. 3-жилд.– Т.: “Ўзбекистон”, 2019. – 400 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд.– Т.: “Ўзбекистон”, 2020. – 400 б.

II. Норматив-у.у.ий .ужжатлар

6. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2018.
7. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрда .абул .илинган “Таълим тў.рисиди”ги ЎР.-637-сонли .онуни.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 12 июнь “Олий таълим муассасаларининг рахбар ва педагог кадрларини .айта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тў.рисиди”ги ПФ-4732-сонли Фармони.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февраль “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича .аракатлар стратегияси тў.рисиди”ги 4947-сонли Фармони.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрель “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тў.рисиди”ги П.-2909-сонли .арори.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрь “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасди.лаш тў.рисиди”ги ПФ-5544-сонли Фармони.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 май “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга .арши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тў.рисиди”ги ПФ-5729-сон Фармони.
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 июнь “2019-2023 йилларда Мирзо Улу.бек номидаги Ўзбекистон Миллий университетида талаб ю.ори бўлган малакали кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва илмий сало.иятини ривожлантириш чора-тадбирлари тў.рисиди”ги П.-4358-сонли .арори.
14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 август “Олий таълим муассасалари ра.бар ва педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тў.рисиди”ги ПФ-5789-сонли Фармони.

15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрь “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони.

16. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 август “Кимё ва биология йўналишларида узлуксиз таълим сифатини ва илм-фан натижадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги П.-4805-сонли қарори.

17. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 25 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси.

18. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маъкамасининг 2019 йил 23 сентябрь “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш бўйича ўқимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 797-сонли қарори.

Ш. Махсус адабиётлар

19. Акбаров Х.И. Физикавий кимё курсидан услубий ўқилганма. Тошкент. 2016, 66 б.

20. Акбаров Х.И., Тиллаев Р.С., Саъдуллаев Б.У. Физикавий кимё. “Университет”, 2015, 436 б.

21. Асекретов О.К., Борисов Б.А., Бугакова Н.Ю. и др. Современные образовательные технологии: педагогика и психология: монография. – Новосибирск: Издательство ЦРНС, 2015. – 318 с.
<http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>

22. Белогуров А.Ю. Модернизация процесса подготовки педагога в контексте инновационного развития общества: Монография. – М.: МАКС Пресс, 2016. – 116 с. ISBN 978-5-317-05412-0.

23. Гулобод ўдратулло. изи, Р.Ишмуамедов, М.Нормуаммедова. Анъанавий ва ноанъанавий таълим. – Самарқанд: “Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази” нашриёти, 2019. 312 б.

24. Муслимов Н.А ва бошқалар. Инновацион таълим технологиялари. Ўқув-методик ўқилганма. – Т.: “Sano-standart”, 2015. – 208 б.

25. Стромберг А.Г., Семченко Д.П. Физическая химия. М.: «Высшая школа». 2019.

26. Олий таълим тизимини раҳамли авлодга мослаштириш концепцияси. Европа Иттифоқи Эрасмус+ дастурининг қўмағида. https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf

27. Томина Е.В. Модульная технология обучения химии в современном образовательном процессе: Учебно-методическое пособие 2018. <http://bookzz.org/>

28. Тожимухаммедов С.С. Замонавий органик кимё. Малака ошириш курси тингловчилари учун ўқув ўқилганма. Тошкент, “Мумтоз сўз”, 2019 й.

29. Тожимухаммедов С.С. Органик барикмаларнинг тузилиши ва реакцияга киришиш обилияти. Тошкент, “Мумтоз сўз”, 2019 й.

30. Тожимухаммедов .. С. Нитрозофенолларнинг синтези ва хоссалари. Монография. Тошкент, “Мумтоз сўз”, 2020 й.
31. Турабов Н.Т., Сманова З.А., Кутлимуратова Н.Х. Аналитик кимё. // Тошкент 2019 й. 247 б.
32. Усмонов Б.Ш., .абибуллаев Р.А. Олий ў.ув юртларида ў.ув жараёнини кредит-модуль тизимида ташкил .илиш. Ў.ув .ўлланма. Т.: “Tafakkur” нашриёти, 2020 й. 120 бет.
33. Ибраймов А.Е. Масофавий ў.итишнинг дидактик тизими. Методик .ўлланма/тузувчи. А.Е. Ибраймов. – Тошкент: “Lesson press”, 2020. 112 бет.
34. Ишмухамедов Р.Ж., М.Мирсолиева. Ў.ув жараёнида инновацион таълим технологиялари. – Т.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 б.
35. Игнатова Н. Ю. Образование в цифровую эпоху: монография. М-во образования и науки РФ. – Нижний Тагил: НТИ (филиал) УрФУ, 2017. – 128 с. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf
36. Золотов Ю.А. Аналитическая химия. Учебник для вузов. Кн. 1,2. -М.: Высшая школа. 2018. 615 с.
37. Шохидоятов ..М., Хўжаниёзов .. Ў., Тожимухаммедов ..С. Органик кимё. Университетлар учун дарслик. Тошкент, “Фан ва технология”. 2014 йил .
38. Advances in Physical Organic Chemistry. Explore book series content. Latest volumes: Volume 53, pp. 2–104 (2019); Volume 52, pp. 2–143 (2018); Volume 51, pp. 2–219 (2017)
39. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
40. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
41. Skoog D.M. West. Fundamentals of Analytical Chemistry Brouks/Cole/ Cengage learning USA, 2014.
42. Mitchell H.Q., Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
43. Mitchell H.Q. “Traveller” B1, B2, MM Publications. 2015. 183.
44. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
45. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
46. Wolfgang Scharte. Basic Physical chemistry. Germany, 2014.
47. Christian G.D., Analytical chemistry University of Washington, USA, 2009.
- IV. Интернет сайтлар
48. <http://edu.uz> – Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги
49. <http://lex.uz> – Ўзбекистон Республикаси .онун .ужжатлари маълумотлари миллий базаси
50. <http://bimm.uz> – Олий таълим тизими педагог ва ра.бар кадрларини .айта тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишни ташкил этиш бош илмий-методик маркази

51. <http://ziyonet.uz> – Таълим портали Ziyonet
52. <http://natlib.uz> – Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси
53. www.chemnet.ru – химическая информационная сеть (Россия).
54. www.anchem.ru – Аналитическая химия и химический анализ. Портал химиков-аналитиков.
55. <http://www.chemspider.com/> – Химических соединений и смесей, принадлежащая королевскому химическому обществу Великобритании.
56. <http://www.natlib.uz> – Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси
57. <http://vle3.chem.msu.ru/course/index.php?categoryid=10>